


BOYMIRZAYEV X.K.

O'ZBEKISTONDA ICHKI ISHLAR ORGANLARI FAOLIYATI

(o`quv-uslubiy qo`llanma)



**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

**O`ZBEKISTONDA ICHKI
ISHLAR ORGANLARI
FAOLIYATI**

(o`quv-uslubiy qo`llanma)

NAMANGAN – 2022

Ushbu o`quv-uslubiy qo`llanma O`zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to’g’risida”gi O`RQ-637-sonli Qonuni, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 16-avgustdagi “Oliy ta’limning Davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to’g’risidagi” Qarori, O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta’lim vazirligining 2012-yil 29-oktyabrdagi 418-sonli buyrug’i bilan tasdiqlangan va boshqa me’yoriy hujjatlar asosida ishlab chiqildi.

O`quv-uslubiy qo`llanma ma’lumotlaridan 5120300 – Tarix (Jahon mamlakatlari bo’yicha) bakalavriat ta’lim yo’nalishi talabalari uchun o`tiladigan “O`zbekiston davlatchiligi tarixi” va “Harbiy san`at tarixi” fanlari hamda umumiy o`rta ta’lim maktablarining tarix fani o`qituvchilari va o`quvchilar dars mashg’ulotlarida foydalanish mumkin.

Tuzuvchi: Boymirzayev Xurshidjon Karimjanovich – Namangan Davlat Universiteti katta o`qituvchi (PhD) v.b. dotsent.

Taqrizchilar: Rasulov Abdulla Nuritdinovich – Namangan davlat universiteti Tarix kafedrası t.f.d professor.

Mansurov Ulug`bek Umarovich – Namangan davlat universiteti Arxivshunoslik kafedrası PhD t.f.n., dotsent.

Mazkur uslubiy qo`llanma Namangan davlat universiteti Ijtimoiy fanlar fakultetining o`quv-uslubiy kengashining 2022-yil 30 sentabrdagi 13-sonli yig’ilishida muhokama qilinib, nashrga tavsiya etilgan.

X.K.Boymirzayev O`zbekistonda ichki ishlar organlari faoliyati, o`quv-uslubiy qo`llanma. Namangan, 2022. – 64 b.

MUNDARIJA

KIRISH.....	4
I BOB. O`ZBEKISTON ICHKI ISHLAR ORGANLARI: KECHA VA BUGUN.....	8
1. O`zbekiston ichki ishlar organlari tarixidan.....	8
2. 1991 – 2015-yillarda O`zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari faoliyati: isloxotlar, yutuqlar, muammolar	19
II BOB. YANGI O`ZBEKISTONDA – ICHKI ISHLAR ORGANLARI: ISLOXOTLAR, NATIJALAR	27
1. O`zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari faoliyatining huquqiy asoslari	27
2. O`zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi faoliyatiga bir nazar.....	37
3. Ichki ishlar organlari sohasidagi isloxotlar, kadrlar masalasi, aholi bilan ishlashda yangicha yondashuv	41
XULOSA.....	56
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI	59

KIRISH

O'zbekistonda davlat mustaqilligini qo'lga kiritilgani shu zaminda asrlar osha istiqomat qilib kelgan avlodu-ajdodlarimiz orzu-umidlarining ro'yobga chiqishi, istiqloq yo'lida to'kilgan qutlug' qonning natijasi, xalq yo'lining qaror topishi hamda adolatning tantansi bo'ldi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, o'zbek xalqi o'zining boy va qadimiy tarixini qaytadan kashf etish imkoniga ega bo'ldi. “O'zbek xalqining necha ming yillik tarixida qanday murakkab davrlar, og'ir sinovlar bo'lganini barchamiz yaxshi bilamiz”¹. Mana shu sinovlarga boy o'tmish, mana shu so'nmas madaniyat o'zbek xalqini buyuk va yorqin kelajak sari odim qadam tashlashga, qiyinchilik va sinovlarni yengib o'tishga undaydi, mushtarak maqsadlar yo'lida birlashtiradi. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev aytganlaridek: “O'zbekistonning eng yangi tarixi va biz erishgan olamshumul yutuqlar mard va matonatli xalqimiz har qanday qiyinchilik, to'siq va sinovlarni o'z kuchi va irodasi bilan yengib o'tishga qodir, deb baralla aytishga to'la asos beradi”².

Yuqorida ta'kidlanganidek, mustaqillik xalqimizga o'zligini qaytarib berdi. Buning natijasi o'laroq, hukumatimiz tomonidan iqtisodiy, siyosiy, madaniy hamda ijtimoiy, xususan, ilm-fan sohasini rivojlantirishga katta e'tibor berildi. Jumladan, 2017-yilning boshida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlangan “2017 – 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi”³ning to'rtinchi yo'nalishida ta'lim va fan sohasini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish vazifalarining belgilanishi fikrimizning yaqqol misolidir.

Jahon miqyosida kechayotgan globalashuv jarayonlarida g'oyaviy, Mafkuraviy va informatsion kurash, jahon iqtisodiy inqirozi, ishsizlikning ortib borishi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy qarama-qarshiliklar kabi voqea-hodisalarning xalqaro ahamiyat kasb etayotganligi, ommaviy noroziliklar mintaqaviy mojarolar, ichki nizolar kuchayib borayotganligi davlatlar xavfsizligini ta'minlash masalasiga e'tibor kuchaytirilmoqda. Bu o'z navbatida davlat mexanizmining

¹ Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини бирга қурамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – Б. 5.

² Мирзиёев Ш. М. Ко'rsatilgan asar. – Б. 7.

³Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2017 – 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегияси” ПФ-4947-сонли фармони // Халқ сўзи. – 2017. – № 28. – Б. 1-2

asosiy bo'g'inlaridan biri bo'lgan politsiyaning davlat boshqaruvi va fuqarolar xavfsizligini ta'minlovchi organ sifatidagi o'rni va rolini kuchaytirib borish zaruratini oshiradi.

Jamiyat tartibi va jamiyat xavfsizligini taminlash, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish borasidagi mavzularda dunyoning bir qator rivojlangan oliy o'quv yurt va ilmiy markazlarida izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, umumnazariy jihatdan politsiya organlarining zamonaviy demokratik jamiyatdagi o'rni va roli funksiyalari, tizim va uslublari, politsiya faoliyatida xalqaro tajribani o'rganish va umumlashtirish, yuqori malakali menejment texnologiyalar, umumiy prinsiplar asosida malakali mutaxasislarni tayyorlash, xalqaro jinoyatchilik, ayniqsa uning uyishgan shakllari davlatlar rivoji va xavfsizligiga jiddiy taxdid solishiga qarshi harakatlarda politsiyaning roli kabi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda.

Respublikamizda ichki xavfsizlikni ta'minlash aholining tinchligi va osoyishtaligini saqlash, fuqarolarning sha'ni, qadr-qimmati, huquqi, erkinligi, qonuniy manfaatlari va barqaror taraqqiyotini har qanday ko'rinishdagi tajovuzlardan himoya qilish borasida ichki ishlar organlari faoliyatini tartibga soluvchi yaxlit ormativ-huquqiy baza shakllantirildi. Jinoyatchilikning oldini olish maqsadida yangi dastur va rejalar amalga oshirilmoqda. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyat mazmuni butunlay o'zgarmoqda. Biz kelajakda el- yurtimizning ishonchi va mehrini qozongan, tom ma'nodagi xalqparvar ichki ishlar tizimini yaratishimiz kerak.

Istiqbol sharofati bilan yurtimizda boshqa sohalar kabi ichki ishlar organlariga alohida e'tibor berilmoqda. Bu soha halqimizning himoyachisi va ko'makchisiga, mamlakatimizdagi tinchlik va osoyishtalikni, jamoat tartibi va fuqarolar xavfsizligini himoya qilishning ishonchli garoviga aylandi. Ayniqsa, so'nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar ushbu tizimni tubdan takomillashtirish, ichki ishlar organlarini aholiga o'z vaqtida va sifatli yordam ko'rsatadigan, har bir xodimi tomonidan "Xalq manfaatlariga xizmat qilish"ni o'z xizmat burchi deb biladigan ijtimoiy yo'naltirilgan professional tuzilmaga aylantirishga imkon bermoqda.

Albatta, O'zbekistonda ichki ishlar organlarining ham o'ziga yarasha tarixi bor. 2016 – 2021-yillar davriy chegarasi oralig'ida O'zbekiston O'zbekistonda ichki ishlar organlari faoliyati, bu sohadagi islohotlar, amalga oshirilayotgan ishlar, ularning natijalari va istiqbolga

belgilangan rejalarini o`rganish va yoritib berish mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

“O`zbekistonda ichki ishlar organlari faoliyati (2016 – 2021-yy)” mavzusi bugungi kunga qadar alohida tadqiqot ob`yekti sifatida o`rganilmagan bo`lsada, mustaqillik yillarida yurtimiz ichki ishlar organlari tarixi va faoliyati, ushbu sohasidagi isloxotlar, hukumatimiz tomonidan chiqarilgan va chiqarilayotgan sohaga oid qonun, farmon va qarorlar, ushbu sohada qilinishi kerak bo`lgan ishlar, xalqaro hamkorlik masalalari ko`plab tadqiqotchilar diqqat markazida bo`lgan va bo`lmoqda. Ushbu mavzularga oid bir qator tadqiqotlar olib borildi, risolalar⁴, monografiyalar⁵ nashr qilindi, dissertatsiyalar⁶, bitiruv malakaviy ishlari himoya qilindi, ilmiy maqolalar, tezislar yozildi.

Mavzu tarixshunosligida xorijlik mutaxassislarning tadqiqotlari ham muhim o`ringa ega hisoblanadi. M. Buttino, R. Batler kabi tadqiqotchilar asarlarida asosan Turkistonda sovet hukumatining o`rnatilishi, milliy-hududiy chegaralanish, bol`sheviklarning yer-suv va jamoalashtirish siyosatlari va sho`ro tuzumiga qarshi o`lkada ko`tarilgan milliy ozodlik harakalari, sobiq tuzum davrida faoliyat yuritgan GPU, OGPU, NKVD va KGB kabi mahfiy organlar faoliyati va ular amalga oshirgan qatag'onlik siyosatlari haqida ma`lumotlar berganlar. Shuningdek, bu asarlarda sobiq ittifoq davrida O`zbekistondagi ichki ishlar organlari faoliyati va tarixi haqida ham qimmatli ma`lumotlar mavjud.

Xulosa qilib aytganda, O`zbekistondagi ichki ishlar organlarining faoliyati to`liq o`rganilmagan. Xususan, sovet davrida yaratilgan asarlarda muammoga kommunistik mafkuraning g`oyaviy ta`siri ostida yondashuv bo`lganligi uchun bu masalalar o`zining xolis talqinini topmagan. O`zbekistonda mustaqillik yillarida yaratilgan tadqiqotlarda ham ichki ishlar organlarining tarixi yetarli darajada o`rganilmagan,

⁴ Халқ хизматида 75 йил. Масъул муҳаррир Ғ.Раҳимов. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992.; Бобоев М., Соатов А. Сурхондарё милицияси. – Самарқанд: Сугдиёна, 1998.; Таумуратов Н. Органы внутренних дел Республики Каракалпакистан в годы независимости: страницы истории МВД РК. – Нукус: Каракалпакистан, 2003.; Андижон милицияси: кеча ва бугун. Муаллифлар жамоаси. – Андижон, 2008.; Раҳмонов Т. Сирдарё милицияси халқ хизматида. – Тошкент: Muharrir, 2012.

⁵ Ерметов А. Туркистонда назорат органлари фаолияти (Ишчи-деҳқон милицияси ва Ишчи-деҳқон инспекцияси 1917 – 1924 йилларда). – Тошкент: Abu matbuot-konsalt, 2007.; Ишанходжаева З. Р. Репрессивная политика Советской власти и культура Узбекистана: трагедия выживания (1925-1953 гг.). – Тошкент: Тафаккур, 2011.

⁶ Таумуратов Н. История милиции Каракалпакистана в период восстановления национальной государственности (1917-1936гг.): Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – Нукус, 1999.; Ерметов А. Туркистон АССРда назорат органлари ва уларнинг тоталитар тузум ўрнатилишидаги ўрни (1918-1924 йиллар): Тарих фанлари номзоди...диссертация автореферати. – Тошкент, 2006.; Юнусова Х. Социально-экономические процессы и духовная жизнь в Узбекистане в 80-х годах XX века: Автореф. дисс. ... докт. ист. наук. – Ташкент, 2009.

tadqiqotlar davom etmoqda. Ushbu bitiruv malakaviy ishi ham mana shunday tadqiqotlarning bir qismi hisoblanadi.

2016-yil 16-sentabrda qabul qilingan “Ichki ishlar organlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 2017-yil 7-fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-son O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni, 2017-yil 10-apreldagi “Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5005-son O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni, 2017-yil 12-apreldagi “Ichki ishlar organlari faoliyatini yanada takomillashtirishga doirtashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-2883-son O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori, 2017-yil 1-maydagi “Ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-2940-son O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori hamda 2017-yil 16-avgustdagi “Ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va masakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3216-son O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori va boshqa huquqiy hujjatlar bitiuvi malakaviy ishida manba sifatida foydalanildi.

I BOB. O`ZBEKISTON ICHKI ISHLAR ORGANLARI: KECHA VA BUGUN

1. O`zbekiston ichki ishlar organlari tarixidan

Tarixiy manbalar qadimda vatanimiz hududida vujudga kelgan davlatlarda harbiy jangchilardan tashqari “soqchi”, “qorovul”, “chokar”, “shixna”, “yasovul”, “ko`kaldosh”, “muhtasib”, “posbonboshi”, “sarboz”, “mirshabboshi” va “mirshab”lar hukmdor qarorgohi, qal`alar va boshqa inshootlarni qo`riqlash, qishloq va shaharlardagi osoyishtalik va jamoat tartibini saqlash, aholi xavfsizligini ta`minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish, aybdorlarni aniqlash, topish va jazolash kabi vazifalarini bajarganligi, shu kabi tuzilmalar negizida bugungi ichki ishlar organlari shakllanganligi, bu esa o`z navbatida, ichki ishlar organlari o`zbek davlatchiligi tarixi bilan chambarchas bog'langan tarixiy ildizlariga ega ekanligidan dalolat beradi⁷.

Tarixga nazar tashlasak, turli davrlardagi siyosiy sharoit taqozosiga ko`ra, bu tuzilmalarning nomi, vazifalari va ish uslublari o`zgarib borganligini ko`rishimiz mumkin.

XIX asr o`rtalaridan boshlab Rossiya imperiyasi O`rta Osiyo xonliklari o`rtasidagi o`zaro nizolar va adovatlardan foydalanib, ushbu xonliklarni birin-ketin bosib ola boshladi. Buxoro amirligi va Xiva xonligi imperiyaning protektoratiga aylandi, Qo`qon xonligi butunlay tugatilib, uning o`rnida Turkiston general- gubernatorligi tashkil etildi.

Turkiston general-gubernatori o`z qo`lida harbiy va fuqaro hokimiyatini birlashtirgan. U bir vaqtning o`zida podsho noibi, Turkiston harbiy okrugi qo`shinlari qo`mondoni, Yettisuv kazak qo`shinlari atamani, bosh prokuror va bosh mirshab vazifasini o`tagan. Bundan tashqari, o`lkada Rossiya imperiyasi Ichki ishlar vazirligining organlari, uning vakillari ham shunga muqobil tarzda ish ko`rishgan.

Shu davrda mamlakatga Rossiya Imperiyasining politsiya tizimi joriy etila boshladi. Rossiyada huquqni muhofaza qilish faoliyati bir qator davlat organlari tomonidan amalga oshirilgan. Ichki ishlar vazirligiga bo`ysunuvchi jandarmeriya va qo`riqlash (oxrana) bo`linmalari bilan birgalikda, 9 ta vazirlik va idoralarda harbiylashtirilgan politsiya funksiyasini bajaruvchi tizimlar mavjud bo`lgan. Masalan, Savdo va sanoat vazirligi tog'-kon politsiyasi hamda ishlab chiqarishni nazorat qiluvchi politsiya xizmatiga ega bo`lgan.

⁷ <https://iiv.uz/pages/vazirlik-tarixi>

Moliya vazirligi qoshida chegara politsiyasi, bojxona politsiyasi hamda yashirin ishlab chiqarishni aniqlovchi (korchem) politsiya bo`lgan. Adliya vazirligiga konvoy xizmati va sud pristavlari bo`ysungan. O`xshash politsiya bo`linmalari boshqa vazirliklarda ham bo`lgan.

Turkiston shaharlarida politsmeyster lavozimi joriy etilib, ularning huquqlari harbiy tumanboshilar huquqlari bilan tenglashtirilgan. Toshkentda yangi va eski shahar politsmeysterlari ish olib borishgan. Ularga politsiya pristavlari bo`ysungan. Har bir politsiya pristavining qo`l ostida 10 dan 30 tagacha “городовой” xizmat qilgan. Politsiya xizmatiga mahalliy aholi vakillari deyarli jalb etilmagan⁸.

Mahalliy ma`muriyat – volost boshqaruvchilari va oqsoqollar ham quyi politsiya tizimi vakolatiga ega bo`lib, ularga yollangan mahalliy aholi vakillari xizmat qilgan. Mahalliy aholi vakillaridan iborat xizmatchilarga o`q-otar qurol olib yurish taqiqlangan.

1908 – 1910-yillarda Turkiston shaharlarida mustaqil politsiya boshqarmalari, Toshkentda ober-politsmeyster lavozimi joriy etilib, o`lkada mirshab-politsiya xizmatchilari soni ko`paytirildi. Shuningdek, tuman va qishloq joylarini ham qamrab olish uchun tuman politsiyasi mahkamasi faoliyati yo`lga qo`yilgan⁹.

1917-yil 28-oktyabrda (yangi sana bilan 10-noyabr⁸), ya`ni oktyabr to`ntarishidan 3 kun o`tgach, RSFSR Ichki ishlar xalq komissarligi “Ishchi militsiyasi to`g`risida” qaror qabul qildi. Bu davrga kelib Turkistonda ham hokimiyatni o`z qo`liga olgan sovetlar o`lkada o`z hokimiyatini o`rnatish, uning xavfsizligini ta`minlash uchun militsiya faoliyatini yo`lga qo`yishga harakat qildi.

1918-yil 29-yanvarda Turkiston Xalq komissarlari kengashining 17-sonli “Zaxira kadrlarini yaratish va militsiyani qayta tashkil etish to`g`risida”gi buyrug`i e`lon qilindi.

Yangi militsiyani tashkil etish va kadrlar tayyorlash ishiga rahbarlik qilish uchun 1918-yil 30-yanvarda “Turkiston o`lkasi shahar va tumanlari militsiya inspektori boshqarmasining bo`limi” tashkil etildi. 1918-yilning fevral oyida barcha uezd, shahar hamda volostlarda militsiya organlari tashkil etila boshlandi.

1919-yilning 26-aprelida Turkiston avtonom sovet sotsialistik respublikasi (ASSR) Ichki ishlar xalq komissarligi (IIXK yoki ruscha NKVD) tarkibida respublika militsiyasi ishiga rahbarlik qiluvchi Ishchi-dehqon militsiyasi bosh boshqarmasi ta`sis etildi va unga bol`shevik

⁸ <https://iiv.uz/pages/vazirlik-tarixi>

⁹ <https://iiv.uz/pages/vazirlik-tarixi>

F.Ya.Sirul' boshliq etib tayinlandi. RSFSR Ichki ishlar xalq komissarligi kollegiyasi tomonidan "Militsiya tarkibida jinoyat qidiruv bo'limlarini tashkil etish" haqidagi qaror tasdiqlangandan so'ng (1918-yil 5-oktyabr¹⁰), Turkiston ASSRda ham dastlab Adliya xalq komissarligi tasarrufida bo'lgan jinoyat qidiruv bo'limlari militsiya tarkibiga o'tkazila boshlandi¹⁰.

1920-yil 22-aprelida Turkiston ASSR Xalq komissarlari kengashi tomonidan "Sovet Ishchi-dehqon militsiyasi to'g'risida nizom" qabul qilindi. Unga ko'ra, Turkiston Ishchi-dehqon militsiyasining vazifalari quyidagilardan iborat deb belgilandi:

– tartib-intizom borasida Ichki ishlar xalq komissarligiga yuklatilgan vazifalarni bajarish hamda chiqarilgan qaror, dekret va buyruqlarni hayotga tatbiq etilishini ta'minlash;

– umumdavlat mulki bo'lgan tashkilot va binolarning xavfsizligini ta'minlash

(telegraf, telefon tarmoqlari organlari, pochta va hokazo);

– zavod, fabrika, konlar va boshqa ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan tashkilot va muassasalarni qo'riqlash;

– o'rmon, ekinzor, davlat qo'riqxonalarini hamda yoqilg'i omborxonalari, xomashyo va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini muhofaza qilish;

– qamoqxonalar va mahbuslar vaqtincha saqlanadigan lagerlarni qo'riqlash;

– mavjud hamma boshqaruv organlariga ularga topshirilgan vazifalarni bajarishda ko'maklashish¹¹.

1920-yilning oxiriga kelib Turkiston ASSR hududida 34 ta shahar, 26 ta uezd va 92 ta rayon militsiya bo'limlari mavjud edi.

Turkistonda Ichki ishlar xalq komissarligi huzurida Militsiya Bosh boshqarmasi ta'sis etilgandan keyin uning tarkibida jinoyat qidiruv, temir yo'l, sanoat, suv va mahkama militsiyasi bo'limlari tuzildi, shu bilan birga, o'lkadagi siyosiy vaziyatdan kelib chiqib, Turkistonda avj olayotgan sovet rejimiga qarshi qurolli harakatga qarshi kurashish uchun maxsus ko'ngilli militsiya otryadlari ham (asosan mahalliy aholi hisobiga) tashkil etildi.

Ishchi-dehqon militsiyasi jinoyatchilikka qarshi kurashish bilan bir paytda Markaz tomonidan Turkiston ASSR Ichki ishlar xalq

¹⁰ <https://iiv.uz/pages/vazirlik-tarixi>

¹¹ <https://iiv.uz/pages/vazirlik-tarixi>

komissarligiga yuborilgan qaror, buyruq, farmoyish va ko`rsatmalarni hayotga tatbiq etishda asosiy rol o`ynadi.

Asosan yevropalik aholi vakillaridan tayinlangan militsiya boshliqlarining mahalliy aholining tilini, urf-odatlarini bilmasligi, xalq murojaatlariga bepisand munosabatda bo`lishi, mahalliy kadrlarning kamligi xalqning militsiyaga bo`lgan ishonchini so`ndirib bordi. Bu kabi salbiy holatlar sovet tuzumining keyingi davrlarida ham kuzatilgan.

1920-yil 30-avgustda Qizil armiyaning hujumi natijasida Buxoro amirligi quladi¹². 1920-yil 2-sentyabrda Umumbuxoro Inqilobiy qo`mitasining qaroriga ko`ra, xalq militsiyasi tashkil qilina boshladi. Uning boshlig'i etib S.Yusupov tayinlandi. Buxoro xalq sovet respublikasi (BXSR)ning birinchi ichki ishlar xalq noziri M.Saidjonov 1920-yil 14- sentyabrdan o`z faoliyatini boshladi¹³. Ichki ishlar xalq nozirligi tarkibida Bosh militsiya boshqarmasi va Jinoyat qidiruv bo`limi tashkil etildi. 1920- yil 15-sentyabrda jinoyat qidiruv bo`limining boshlig'i etib A. Qurbonov, uning yordamchisi etib esa F.Mel'tser tayinlandi.

BXSR Ichki ishlar nozirligining 1920-yil 25-sentyabrdagi buyrug'iga ko`ra, Ishchi-dehqon Militsiyasi Bosh boshqarmasi tashkil etildi. 1921-yil 17-yanvarda Umumbuxoro Markaziy ijroiya qo`mitasi va Xalq nozirlar kengashining "Ishchi- dehqon militsiyasi haqida"gi dekreti qabul qilingan. Unga ko`ra, ishchi-dehqon militsiyasi katta va kichik militsionerlar, jinoyat qidiruvi boshliq tarkibi, qidiruv agentlari, kantselyariya (devonxona) va texnik xodimlardan iborat bo`lgan.

Buxoro xalq sovet respublikasi (BXSR) Xalq nozirlar kengashining 1922-yil 5-martda tasdiqlangan "Jinoyat qidiruv bosh boshqarmasi va militsiya zahiralari haqida"gi, 1923-yil 10-oktyabrdagi "Buxoro xalq sovet respublikasining ichki ishlar xalq nozirligi haqida"gi qarorlari ichki ishlar organlarining tuzilishi, vazifa va vakolatlari hamda ular faoliyatining asosiy yo`nalishlarini belgilab bergan¹⁴.

1920-yil 30-aprelda xalq vakillarining birinchi Butunxorazm quriltoyida Xorazm xalq sovet respublikasi tashkil topganligi e`lon qilindi. Shu kuni "Mamlakatda militsiya boshqarmasini ta`sis etish va Xiva shahrini himoya qilish to`g'risida" qaror qabul qildi. Unga ko`ra, Adliya nozirligi qoshida Militsiya boshqarmasi ta`sis etildi. Birinchi

¹² <https://iiv.uz/pages/vazirlik-tarixi>

¹³ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. 2-китоб. – Тошкент: Шарк, 2000. – Б. 130.

¹⁴ <https://iiv.uz/pages/vazirlik-tarixi>

ichki ishlar noziri N.SHolikorov 1920-yil 30- apreldan o`z vazifasini bajarishga kirishdi¹⁵.

Xiva shahrida maxsus militsiya boshqarmasi tuzilib, joylarda uning bo`limlari tashkil etildi. Bo`limning asosiy vazifalari kontrrevolyutsiyaga qarshi kurashish hamda shaharning ichkarisida jamoat tartibini saqlash, jinoyatchilikka qarshi kurash ishlari bilan shug'ullanishdan iborat edi. Bo`lim tarkibiga yuzga yaqin xalq militsionerlari kirar edi.

1923-yilning apreliga kelib militsiya otryadi 600 kishini tashkil etdi (400 dan ortiq otliq). Xivadan tashqari, yana 27 taga yaqin militsiya tayanch punktlari mavjud bo`lib, u yerda 30 ga yaqin katta militsionerlar faoliyat yuritishardi. 1923- yil 5-noyabrda Xorazm Markaziy ijroiya qo`mitasining qaroriga binoan, ichki ishlar xalq nozirliги huzurida fuqarolar xavfsizligini qo`riqlash, inqilobiy sharoitlarda tartib-osoyshtalikni saqlash, sotsialistik mulkchilikni muhofaza qilish maqsadida Respublika Markaziy Qo`riqlash boshqarmasi tashkil etildi. 1924-yil 30-noyabrda Militsiya bo`limi Xorazm Inqilobiy qo`mitasining tasarrufiga o`tdi¹⁶.

1924-yil oxirlarida O`rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanishning o`tkazilishi va O`zbekiston SSRning (1925-yilning fevral oyi) tashkil etilishi natijasida, Turkiston ASSR, Buxoro va Xorazm xalq sovet respublikalari hududlarida faoliyat yuritgan ichki ishlar organlari O`zbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissarligi tasarrufiga o`tkazildi va unga militsiya va jinoyat qidiruv bo`limlarining faoliyati ustidan umumiy nazorat qilish yuklatildi.

O`zbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissarligining Markaziy ma`muriy boshqarmasi qoshida “Militsiya va jinoyat qidiruv” bo`limi tashkil etildi. Unga 7 ta (Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo va Xorazm) viloyat bo`linmalari, bitta tuman-shahar (Toshkentning eski shahrida) bo`linmasi, 13 ta tuman (Mirzacho`l, Qo`qon, Andijon, Namangan, Jizzax, Xo`jand, Kattaqo'rg'on, Nurota, Karmana, Kitob, Shahrisabz, g'uzor, Bauman va Sariosiyo) bo`linmalari va Samarqand viloyatining vokzaloldi bo`linmasi bo`ysunar edi¹⁷.

Ichki ishlar xalq komissarligi tomonidan 1925-yil 1-dekabrda “O`zbekiston SSR Sovet Ishchi-dehqon militsiyasi haqida nizom” qabul

¹⁵ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида.... – Б. 120-121.

¹⁶ Полвонов Н. Хоразмдаги ижтимоий ҳаракатлар ва сиёсий партиялар тарихи (1900-1924). – Т.: Akademnashr, 2011. – Б. 78-81.

¹⁷ <https://e-tarix.uz/vatan-tarixi/480-maqola.html>

qilinadi. Jumladan, uning 1-bandida: “O`zbekiston SSR Sovet Ishchi-dehqon militsiyasi markaziy va mahalliy hokimiyatning ijro etuvchi organi bo`lib, ular tomonidan inqilobiy tartibni himoya qilish va xavfsizlikni ta`minlash yuzasidan e`lon qilingan qaror, buyruq hamda farmoyishlarni hayotga tatbiq etadi” deb ko`rsatilgan.

Bu davrda militsiyaga yuklatilgan vazifalar quyidagilardan iborat bo`lgan:

- inqilobiy tartibni himoya qilish, fuqarolarning shaxsiy va mulkiy xavfsizligini ta`minlash;
- yuqoridan chiqarilgan qonunlar, qarorlar, farmoyish va dekretlarni hayotga tatbiq etishda ishtirok etish;
- qamoqxonalarni qo`riqlash;
- jinoyatga qarshi kurashish;
- aholi punktlaridagi sanitar holatni nazorat qilish;
- aholiga pasport berish, pochta orqali yuborilgan posilka va pulli xatlarni olishga doir tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish va yo`qotilgan hujjatlarni qayta tiklash;
- ma`muriy jarimalarni undirish;
- qishloq xo`jaligini nazorat qilish va qoramollarning sonini tekshirib turish¹⁸.

1926-yil 23-sentyabrda O`zbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissarligi tomonidan jinoyat qidiruv va militsiya organlarining faoliyati samadorligini oshirish yuzasidan qaror qabul qilindi. Unda “Barcha viloyat ma`muriy bo`lim boshliqlariga jinoyat qidiruv va militsiya bo`limlarini birlashtirib, unga militsiya bo`limi boshlig`ini rahbar etib tayinlash vazifasi yuklatildi”.

1930-yil 31-dekabrda Ichki ishlar xalq komissarligi faoliyati to`xtatildi. Bu o`zgarishlar natijasida militsiya boshqarmasi mavjud shtati bilan birga Xalq komissarlari kengashi tasarrufiga o`tkazilib, viloyat, shahar va tumanlardagi militsiya bo`limlari esa tegishli hudud ijroiya qo`mitalariga bo`ysundirildi.

1930-yillarda Sobiq Ittifoqda pasport tizimi joriy etila boshlandi va shu munosabat bilan joylarda pasport xizmati yo`lga qo`yila boshlandi.

O`zbekiston SSR Xalq komissarligi kengashining 1932-yil 3-aprelda o`tkazilgan yig`ilishda “O`zbekiston SSR Xalq komissarligi kengashi huzuridagi ishchi-dehqon militsiyasi bosh boshqarmasi to`g`risidagi nizom” tasdiqlandi. Nizomda “Ishchi-dehqon militsiyasi bosh boshqarmasi jamoat tartibini saqlash va inqilobiy hukumatni

¹⁸ <https://iiv.uz/pages/vazirlik-tarixi>

himoya qilishda hamda fuqarolarning shaxsiy xavfsizligi, mulkiy daxlsizligi va ularning haq-huquqini muhofaza qilishda militsiya organlariga rahbarlikni amalga oshiradi” – deb ko`rsatilgan¹⁹.

Dastlabki vaqtlarda militsiya safiga qabul qilingan yosh xodimlar uchun 2-3 oylik tayyorlov kurslari tashkil etilgan, 1932-yilda ichki ishlar organlari uchun huquqshunos kadrlar tayyorlab beruvchi Toshkent o`rta-maxsus militsiya maktabi tashkil etilgan²⁰.

SSSR Markaziy ijroiya qo`mitasining 1934-yil 10-iyuldagi qaroriga asosan, Umumittifoq Ichki ishlar xalq komissarligi qayta tuzildi. Unga davlat xavfsizlik organlari va Militsiya Bosh boshqarmasi buysundirildi.

1935-yilning noyabr-dekabr oylarida militsiyaning butun rahbar tarkibi attestatsiyadan o`tkazilishi, xodimlar uchun maxsus unvonlar va nishonlar ta`sis etilishi, rahbar tarkibning huquq hamda vazifalari aniq belgilanishi, xodimlarni ishga tayinlash va bo`shatish tartibi o`rnatildi.

1936-yilning 3-martda ichki ishlar idoralari tarkibida Davlat avtomobil inspeksiyasi xizmati tashkil etildi. Ichki ishlar xalq komissarligi operativ organlarida rahbarlar tarkibiga unvonlar maxsus tayyorgarligi va xizmat attestatsiyasidagi malakasi hamda ish stajiga qarab berilardi. Xizmatni o`tash uchun quyidagi maxsus unvonlar belgilandi: militsiya serjanti, militsiya kichik leytenanti, militsiya leytenanti, militsiya katta leytenanti, militsiya mayori, militsiya katta mayori, militsiya inspektori, militsiya direktori va militsiya bosh direktori.

Ikkinchi jahon urushida yillarida Toshkent militsiya maktabi operativ xodimlar tayyorlovchi asosiy bazalardan biri bo`lib qoldi. Kadrlar etishmasligi tufayli o`qish muddati to`qqiz oy bo`lgan asosiy bo`limdan tashqari, 3 oy, 20 kunlik kurslar tashkil etildi.

Urush sharoitidan kelib chiqqan holda, davlat tashkilotlarining strukturasi, ularga yuklatilgan vazifa va vakolatlarda bir qator o`zgarishlar amalga oshirildi.

1941-yil fevral oyida SSSR Ichki ishlar xalq komissarligi va uning joylardagi bo`limlari ikkiga, ya`ni Ichki ishlar xalq komissarligi va Davlat xavfsizlik komissarligiga bo`lindi²¹.

Urush sharoitida shaxsiy tarkibning qisqartirilishi jiddiy qiyinchilik tug'dirardi, bu qiyinchiliklarni engish uchun militsiya organlarini to`ldirish yuzasidan shoshilinch choralar ko`rish lozim edi. Ko`p

¹⁹ <https://iiv.uz/pages/vazirlik-tarixi>

²⁰ <https://akadmvd.uz/uz/menu/istorija-akademii>

²¹ <https://iiv.uz/pages/vazirlik-tarixi>

hollarda militsiya saflari harbiy komissarliklar orqali yarador bo`lib frontdan qaytib kelgan kishilar, sog'lig'i va yoshi tufayli armiyada xizmat qilishi cheklangan shaxslar va ayollar hisobiga to`ldiriladi. Masalan, 1942-yildan 1945-yilgacha Toshkent militsiya maktabining kursantlari tarkibi ma`lum darajada xotin-qizlar hisobiga to`ldirib borildi. Bu davrda xotin-qizlar salmog'i maktab kursantlari umumiy sonining 60 foizini tashkil qilardi.

Militsiya shaxsiy tarkibida kadrlarga ehtiyojni qisman bo`lsa-da, to`ldirish maqsadida O`zbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissarligi tomonidan 1941-yil 27-iyunda maxsus buyruq chiqarilib, unga asosan, Toshkent militsiya maktabining ikkinchi kurs talabalari iyun oyida (68 nafar), 4-oktyabrda esa birinchi kurs talabalari (72 nafar, shundan 40 tasi ayollar) muddatidan oldin o`qishni tugatib, militsiya organlarida xizmat qilish uchun yo`llanma oldilar.

1941-yil 20-iyulda SSSR Oliy Kengashi Prezidiumining Davlat xavfsizligi komissarligi va Ichki ishlar xalq komissarliklarini yagona Ichki ishlar xalq komissarligiga birlashtirish to`g`risidagi farmoni e`lon qilindi.

1943-yil 9-fevralda SSSR Oliy Kengashi Prezidiumining qaroriga muvofiq, militsiya shaxsiy tarkibi uchun maxsus unvon va pogonlar joriy etildi. Qarorda quyidagi unvonlar nazarda tutildi: 3-rang (darajali) militsiya komissari, 2-rang militsiya komissari, 1-rang militsiya komissari unvonlari bo`lib, 1-darajalilarga – yuqori rahbarlar tarkibi, ya`ni militsiya mayori, podpolkovnigi (kichik) va polkovnik unvonlari (katta boshliqlar tarkibi hisoblangan), 2-darajalilarga militsiya kichik leytenant, leytenant, katta leytenant va kapitan unvonlari (o`rta boshliqlar tarkibi), 3-darajalilarga (kichik boshliqlar tarkibi) militsiya kichik serjanti, serjant, katta serjant, serjantlar kattasi va oddiy tarkibga – militsiya yefreytori unvoni kirgan²².

1943-yil aprelda esa Ichki ishlar xalq komissarligi yana ikkita alohida mustaqil komissarlikka ajratiladi. Bundan ko`zlangan asosiy maqsad “mamlakatda jamiyat va davlat xavfsizligini ta`minlash, chet el agenturasi faoliyati va jinoyatchilikning oldini olishdagi ishlarni takomillashtirishdan iborat” deb ko`rsatildi.

Urushning dastlabki kunlaridanoq, respublika militsiyasining ko`plab xodimlari ko`ngilli ravishda harakatdagi armiya safiga qo`shildilar.

²² <https://iiv.uz/pages/vazirlik-tarixi>

Xususan, urush boshlangan ilk oylarda O`zbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissarligining buyrug'i asosida respublika bo`yicha rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritayotgan xodimlardan 57 nafari tezkor ravishda Qizil armiya saflariga yuborildi. Ulardan tashqari, Toshkent militsiya maktabi tinglovchilarining 60 foizi, komandir-o`qituvchilarining 30 foizi, Samarqand militsiya organlari xodimlaridan 1 489 kishi, Toshkent Temir yo`li militsiyasi bo`limining 204 nafar eng yaxshi xodimlari o`zbek milliy divizitsiyasi, shuningdek, general Panfilov diviziyasi safida jangga kirdilar²³.

1942-yil 23-yanvarda SSSR Oliy Kengashi prezidiumining “Ota-onasiz qolgan bolalarni tegishli muassasalarga joylashtirish to`g`risida”gi qarori asosida mahalliy ijroiya qo`mitalarida maxsus komissiyalar tashkil etildi.

Bu komissiyalar ichki ishlar organlari bilan birgalikda faoliyat yuritib, ular ota-onasiz qolgan bolalarni tarbiyalash va tegishli muassasalarga joylashtirish, ularni ish bilan ta`minlash barobarida, voyaga yetmaganlarning haq-huquqini himoya qilish va nazoratsiz qolishining oldini olish bilan shug`ullanishi jarayonida militsiya huzuridagi bolalarni qabul qilish va taqsimlash xonalarining soni ko`paydi. Militsiya xodimlari evakuatsiya qilingan bolalarni qabul qilib olish, ota-onasiz qolgan bolalarni topish va joylashtirishda samarali faoliyat yuritishdi.

Kartochka tizimi joriy etilgandan so`ng jinoyatchilikning yangi turlari rivojlana boshladi. Uni bartaraf etish maqsadida, 1942-yil 20-martda “Aholidan oziq-ovqat mahsulotlarini o`g`irlash va shu turdagi jinoyatlarga qarshi kurashish to`g`risida” SSSR Ichki ishlar xalq komissarligi Militsiya bosh boshqarmasining buyrug'i chiqarildi. Unga asosan, umumiy foydalanish joylari va transportlarda, magazin va bozorlarda oziq-ovqat va sanoat kartochkalarini o`g`irlash va taqsimlashdagi suiste`molliklar hamda qalbaki kartochkalar tayyorlashga qarshi kurash borasida amaliy choralar ko`rildi.

Urushdan keyingi dastlabki yillarda respublika hukumati oldida militsiyani tashkiliy jihatdan mustahkamlash, uning saflarini to`ldirish va xodimlar tayyorlash, militsiyaning faoliyatini takomillashtirish vazifalari turar edi. Barcha militsiya organlarida xodimlar etishmasdi, ayniqsa, uni malakali xodimlar bilan to`ldirish qiyin edi.

Respublika militsiya organlarida ishlovchilarning, ayniqsa oddiy militsionerlarning umumiy ta`lim darajasi past edi. Chunonchi, 1945-yil

²³ <https://iiv.uz/pages/vazirlik-tarixi>

o`rtalarida Toshkent garnizonining shaxsiy tarkibi orasida militsionerlarning salkam 20 foizi butunlay savodsiz bo`lsa, ofitserlarning 32 foizi 7 sinf hajmida va undan ham kamroq ma`lumotli edi. Shu boisdan O`zbekiston SSR Ichki ishlar vazirligi maxsus kechki o`rta maktablar yoki alohida sinflar tashkil qildi, ularda ichki ishlar organlarining xodimlari o`qib, o`rta ma`lumot oldilar.

1946-yil martda Ichki ishlar xalq komissarligining nomi Ichki ishlar vazirligi deb o`zgartirildi.

1948-yil fevral oyida O`zbekiston militsiya organlarida tergov bo`limlari va bo`linmalari tuzildi. 1953-yil 27-martda sho`ro hukumatining Vazirlar Kengashi “Jamoat tartibini saqlashni va jinoyatlarga qarshi kurashni kuchaytirish choralari to`g`risida”gi qaror qabul qildi. Unga ko`ra, Ichki ishlar ministrligi va Davlat xavfsizligi komissariyati Ichki ishlar ministrligiga birlashdi²⁴.

1962-yil 22-fevralda ittifoqdosh respublikalar ichki ishlar vazirliklarining nomi Jamoat tartibini saqlash vazirligi deb o`zgartirildi.

1968-yil 25-noyabrdagi SSSR Oliy kengashi rayosatining farmoni bilan SSSR Jamoat tartibini saqlash vazirligi yana Ichki ishlar vazirligiga aylantirildi. O`zbekiston SSR Oliy kengashi rayosatining 1968-yil 4-dekabrdagi farmoni bilan O`zbekistonda ham shahar, tuman ichki ishlar boshqarma va bo`limlari tashkil etildi va uning tarkibiga militsiya apparati, qo`riqlash bo`limi, davlat yong'in nazorati, axloq tuzatish ishlari inspeksiylari kiritildi.

Sobiq ittifoq davridagi kadrlar siyosatining jiddiy xatolaridan biri markaz tomonidan milliy respublikalarga, jumladan, O`zbekistonga mahalliy sharoitni bilmagan kadrlarning yuborilishi bilan bog`liq edi. Masalan, 1983 – 1989-yillarda “O`zbekistonda sotsialistik qonunchilikni tiklash” shiori ostida Ichki ishlar vazirligiga sobiq sovetlar mamlakatidan hammasi bo`lib 150 nafar xodim jo`natiladi. O`zbekiston SSR IIV tarkibida ishlagan shovinistik kayfiyatdagi bu kishilar hech qachon mahalliy aholi haqida qayg'urmagan, balki o`zlari kabi “o`zbek ishi” degan bo`hton bahonasida prokuratura va sud tizimiga tushirilgan “desantchilar” bilan til biriktirib, o`zbek xalqini markazga yomonlash evaziga o`z xizmat pillapoyalaridan ko`tarilishni o`ylashgan. O`sha yillarda ichki ishlar vazirining o`rinbosari bo`lgan marhum iste`fodagi general-mayor g'.Rahimovning dalillariga ko`ra, vazirlik tarkibidagi 27 boshqarma va bo`limdan bor-yo`g`i ikkitasinigina o`zbek millatiga

²⁴ <https://iiv.uz/pages/vazirlik-tarixi>

mansub kishilar boshqargan. U ham bo`lsa, xo`jalik va tibbiyot boshqarmalari edi²⁵.

1983 – 1989-yillarda O`zbekistonda faoliyat olib borgan sobiq ittifoq Bosh prokuraturasining alohida muhim ishlar bo`yicha tergov guruhi (T.Gdlyan va N.Ivanov boshchiligida) tomonidan to`qib chiqarilgan “Paxta ishi” va “O`zbek ishi” deb nomlangan uydirmalari asosidagi qatag'on oqibatida respublika ichki ishlar organlarining ko`plab rahbar va xodimlarning nohaq hibsga olinishi holati juda achinarli holdir.

Darhaqiqat, 1983 – 1989-yillar xalqimiz uchun nihoyatda og'ir yillar bo`lgan. O`zbekistonni agrar respublikadan sanoati rivojlangan, sobiq ittifoqda yagona sanalgan qator-qator zavod-fabrikalari va malakali kadrlarga ega respublikaga aylantirgan benazir inson Sharof Rashidovning bevaqt o`limidan so`ng, O`zbekistonda qatag'on qilichini ishga solishga shay bo`lib turgan kuchlar tomonidan tuhmat toshlari otila boshlandi. Bu davrda birgina “Paxta ishi” (boshqa ishlar ham bor edi) bo`yicha 22 mingga yaqin kishi hibsga olingan. Ular orasida, ko`plab ichki ishlar idoralarining jonkuyar va fidoyi xodimlari va ularning oila a`zolari bor edi.

Tergov guruhi birin-ketin Buxoro viloyati IIB boshlig'i general A.Norov va uning ikki o`rinbosari – polkovnik Sh.Rahimov, podpolkovnik V.Mulin, so`ngra generallar X.Norbo`taev, S.Sobirov, polkovniklar T. Hayitov, I. Pozilxonov, M.Alimov va Ichki ishlar vazirligining bir qator xodimlarini to`qib chiqarilgan ayblovlar bilan hibsga oldilar.

Keyinchalik ushbu jarayon butun respublika bo`ylab davom ettirildi. Natijada, o`nlab huquqni muhofaza qiluvchi organlarining rahbar xodimlari hamda ularning ortidan boshqa ko`plab xodimlar turli tuhmatlar qurbonlariga aylanishadi²⁶.

Sovet Ittifoqi tuzumi davrida turli yillarda ichki ishlar organlari tizimida ko`plab strukturaviy o`zgarishlar qilingan bo`lsa-da, ammo mohiyat o`zgarmagan, respublika ichki ishlar vazirligi mustaqil harakat qilolmas, Ittifoq ichki ishlar vazirligining hududiy organi sifatida faoliyat olib borar edi. Natijada, oddiy xalq ichki ishlar organlariga ishonchsizlik bilan qarar, ichki ishlar organlari sovet tuzumining majburlov va jazo organiga aylanib qolgan edi.

²⁵ <https://iiv.uz/pages/vazirlik-tarixi>

²⁶ <https://iiv.uz/pages/vazirlik-tarixi>

2. 1991 – 2015-yillarda O`zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari faoliyati: isloxotlar, yutuqlar, muammolar

O`zbekiston davlat mustaqilligini qo`lga kiritilishi natijasida ichki ishlar organlarining moddiy-texnik ahvolini yaxshilash, malakali milliy kadrlar tayyorlash tizimini joriy etishga qaratilgan dastlabki o`zgarishlar amalga oshirildi. Jumladan, 1991-yil 25-oktyabrda O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 270-sonli qarori²⁷ asosida O`zbekiston SSR IIV – O`zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligiga aylantirildi. Qaror bilan vazirlik Nizomi va strukturasi tasdiqlandi. Keyinchalik ushbu sana mamlakatimizda ichki ishlar organlari xodimlari kuni sifatida belgilandi.

Mazkur davrlarga hamohang ravishda, 1989 – 1990-yillar mobaynida mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o`tish bilan bog`liq juda og`ir bir davr hukm surardi. Har bir sohada bo`lgani kabi, ichki ishlar organlari tizimida ham keng qamrovli ishlar, ulkan vazifalar, yechimini kutayotgan muammolar mavjud edi. Bunday vaziyatdan o`z manfaatlari yo`lida foydalanishga uringan ayrim kimsalarning noqonuniy qilmishlari natijasida giyohvandlik, diniy ekstremizm, bosqinchilik kabi og`ir jinoyat turlarining soni ko`payib ketdi.

Bundan esa, ayrim chet davlatlarda faoliyat yuritayotgan ekstremistik tashkilotlarning jirkanch maqsadli rahnamolari tomonidan foydalanishga urinib, respublikamiz hududida mavjud kriminogen vaziyatni izdan chiqarishga, aholini vahimaga solishga, huquqni muxofaza qiluvchi organlar xodimlariga nisbatan ishonchsizlik uyg`otishga hamda ularni qo`rqitish va bo`ysundirishga bo`lgan amaliy harakatlar qilindi.

Lekin shuni alohida qayd etish o`rinliki, mazkur og`ir sinovli davrlarning barchasida ham, ichki ishlar organlarining mard va jasur, yuragida o`ti bor, shijoatli xodimlari tomonidan Vatan himoyasi yo`lida o`z jonlarini ayamay, jinoyatchilikka qarshi mardonavor kurash olib borildi. Og`ir damlarda doimiy ravishda o`z xizmat burchiga sodiqlikni, jonbozlikni, qat`iyatlilikni, matonatlilikni, fidoyilik xislatlarini namoyon etdilar.

Bu haqdagi aniq faktlarni esa respublikamiz hududida 1989 – 2010-yillar davomida sodir etilgan terrorchilik, qo`poruvchilik hamda turli ommaviy tartibuzarliklarda ko`rishimiz mumkin. Mazkur xunrezliklarga qarshi ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan yuksak darajadagi

²⁷ Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазириги ҳақида НИЗОМ / <https://lex.uz/docs/1033174>

mardlik va fidoyilik bilan kurash olib borilganligi natijasida ularning aksariyati mardlarcha halok bo`lganligiga guvohimiz.

Buni quyidagi aniq misollarda ko`rishimiz mumkin bo`ladi:

– 1989-yil 3 – 12-iyun kunlari Farg'ona viloyatida ommaviy tartibsizliklar yuzaga kelib, unda Marg'ilon, Toshloq, Qo`qon, Farg'ona va Quvasoy shaharlarida hamda Farg'ona, Oxunboboyev va O`zbekiston tumanlarida yashovchi turk-mesxetin millatiga mansub fuqarolarga nisbatan qotillik, ularning mol-mulklariga nisbatan talonchilik jinoyatlari sodir etilib, uy-joylari yoqib yuborilgan. Deyarli 70 mingdan ortiq fuqarolar qatnashgan mazkur tartibsizliklarning ichki ishlar idoralari xodimlari tomonidan yanada rivojlanib ketishining oldi olinib, kechayu-kunduz olib borilgan amaliy harakatlar natijasida mazkur tartibsizliklar to`la bartaraf etilishiga erishilgan;

– 1990-yil 19 – 21-fevral kunlari Toshkent viloyatining Bo`ka tumanida ommaviy tartibsizliklar yuz berib, “Oktyabrning 40 yilligi sovxozi va “Qorabog” qishlog`ida istiqomat qilgan turk-mesxetnlari bilan bog`liq janjallar avj oladi. Mazkur tartibsizliklar ham aynan ichki ishlar organlarining fidokorona xizmatlari bilan to`la bartaraf etilib, 2000 ga yaqin turk mesxetnlari xavfli hisoblangan zonadan Parkent tumani hududiga evakuatsiya qilinadi hamda “Kumushkon” sanatoriyasiga joylashtirilgan;

– shu yilning 2-3 mart kunlari ham bir guruh shaxslar turk mesxetnlarning sanatoriya hududidan olib chiqib ketilishini talab qilib, ommaviy tartibsizliklarni davom ettirishlari oqibatida 4 nafar shaxs, jumladan, 1 nafar militsiya xodimi o`ldiriladi. Ushbu tartibsizliklarning bartaraf etilishida yuzlab ichki ishlar organlari xodimlari turli darajadagi tan jarohatlarini olishgan²⁸;

– 1991-yil 9-dekabr kuni Namangan shahar hududida joylashgan masjidlar atrofida “vahhobiy” diniy ekstremistik oqimi a`zolari tomonidan 1000 ga yaqin dindorlar va mahalliy aholi to`planib, shahar hududidagi katta yo`llar to`sib qo`yiladi, aholiga ommaviy ish tashlash uyushtirishlari kerakligi da`vat etiladi, shuningdek, viloyat hokimligi binosi atrofiga aholini to`plab, O`zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimovning kelishini talab qilishgan. Ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan maxsus profilaktik-amaliy tadbirlar zudlik bilan olib borilib, mazkur jarayonning ommaviy tartibsizliklarga aylanib ketishining oldi olinadi;

²⁸ <https://iiv.uz/pages/vazirlik-tarixi>

– 1994-yilning 5-may kuni Namangan viloyati, Uchqo`rg'on tumani hududida joylashgan 4-sonli Bojxona blok postida xizmat olib borayotgan militsiya xodimi B.Quchqarov diniy-ekstremistik oqim a`zolarining hujumiga faol qarshilik ko`rsatib, yuz bergan otishmada xizmat burchiga sodiq holda, qahramonlarcha halok bo`ladi;

– 1997-yil 24-mart kuni Namangan shahri hududida xizmat olib borayotgan ikki nafar viloyat IIB xodimlari A.Tursunov va S.Olimovlar DEO a`zosi, Namangan shahar Qorako`l ko`chasi 14-uyda ro`yxatda turgan 1967-y. t., A.Yo`ldoshev va uning sheriklari bilan yuz bergan otishmada mardlarcha halok bo`lishadi. Ushbu otishma jarayonida yetti nafar jinoyatchi otib o`ldirilgan, A.Yo`ldoshev esa yaralanib, qo`shni Qirg'iziston hududiga qochib o`tishga muvaffaq bo`lgan. 1998-yilda A.Yuldashev Qirg'iziston Respublikasi hududida olib borgan terrorchilik harakati davomida otib o`ldirilganligi ma`lum bo`lgan²⁹;

–1998-yil 17-dekabr kuni Xorazm viloyati Hazorasp tumanining Turkmaniston bilan chegara xududida ikki nafar terrorchilik guruhi jangarilari tomonidan ushbu hududda xizmat olib borayotgan chegara qo`shinlari va IIB xodimlariga nisbatan uyushtirilgan qurolli hujum natijasida IIB xodimlari A.Quvondiqov va M.Masharipovlar yaralangan, shuningdek, 29-dekabr kuni to`rt nafar terrorchilik guruhi a`zolari bilan viloyatdagi “Gaz Achik” hududining Turkmaniston bilan chegaradosh qismida sodir bo`lgan otishma natijasida bojxona xizmati xodimi B.Avezov va IIB xodimi S.Ishniyazovlar mardlarcha halok bo`lishgan;

– 1999-yil 16-fevral kuni Toshkent shahrida mudhish portlashlar sodir bo`ldi. Sh.Rashidov ko`chasida qoldirilgan 2 ta avtomashinaga joylashtirilgan portlovchi moslamalar harakatga keltirilib, qo`poruvchilik harakati amalga oshirilganligi, soat 10:55da O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi binosi oldida “GAZ-21” rusumli avtomashinaga o`rnatilgan portlash moslamasi harakatga keltirilishi, soat 11:00 da X.Yusuf ko`chasida “ZAZ” rusumli avtomashinaga o`rnatilgan qo`lbola portlash moslamasi portlatilishi, soat 11:20da Markaziy Bank binosi oldida “Audi-100” rusumli avtomashina hamda soat 12:00da Yakkasaroy tumani A.Qahhor ko`chasi 22-uyning portlatilishi holatlari yuz beradi. Mazkur qo`poruvchilik harakatlari natijasida 13 nafar begunoh odamlar, jumladan, 1 nafar ichki ishlar organi xodimi vafot etishgan, 128 nafariga esa, turli darajadagi tan jarohatlari etkazilgan. Keyinchalik mazkur mudhish voqealarning barcha ishtirokchilari aniqlanib, bir qismi qo`lga olish jarayonlarida yo`q qilingan, boshqa

²⁹ <https://iiv.uz/pages/vazirlik-tarixi>

qismi qo`lga olinib, adolatli jazo olganlar, ayrimlari esa boshqa davlatlar hududida terroristik aktlar davomida yo`q qilingan³⁰;

– 1999-yil 30-mart kuni ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan Toshkent shahri Hamza tumanining Farg'ona yo`li ko`chasidagi ko`p qavatli uyda yashiringan “Turkiston islom harakati” terrorchilik tashkiloti a`zolarini ushlab maxsus tadbiri o`tkazilib, mazkur tadbir davomida qurolli qarshilik ko`rsatgan 2 nafar terrorchi guruh a`zolari o`ldiriladi va voqea joyidan granata, o`qotar qurollar hamda jinoyatga aloqador boshqa ashyolar olinadi. Ushbu kunning o`zida bir qator o`ta og`ir jinoyatlarni sodir etib, qidiruvda bo`lgan “vahhobiy” diniy ekstremistik oqimi faollaridan biri Toshkent shahri Hamza tumanining Buyuk Ipak yo`li ko`chasidagi uyda yashiringanligi aniqlanib, uni qo`lga olish vaqtida ko`rsatilgan qurolli qarshilik natijasida, terrorchi otib o`ldiriladi;

– 1999-yil 15-noyabr kuni Toshkent viloyati Ohangaron tumani Ugom- Chotqol bog'i hududida yashirinib, “tish-tirnog'igacha” qurollangan 14 nafar terrorchi guruh a`zolarining aniqlanishi natijasida, IIB xodimlari bilan qurolli to`qnashuv yuz beradi va natijada Yangiobod qo`rg'oni IIB boshligi V.Govoruxin, uning o`rinbosari B.Po`latov hamda tezkor vakil A.Qoraboevlar dushman bilan ayovsiz jang paytida mardonavor halok bo`lishgan. 16-noyabr“ kuni esa “Yangiobod” dam olish maskani hududini havodan ko`zdan kechirish vaqtida 4 nafar jangarilarning tog'li yo`nalishdagi izlari topiladi hamda O`zbekiston Respublikasi IIV “Bars” maxsus jangovar otryadi xodimlaridan iborat tezkor guruh tomonidan to`rt nafar jangarilar ta`qib qilinib, yuz bergan qurolli to`qnashuv davomida ular yo`q qilingan³¹;

– 2000-yil 25-iyul kuni “Turkiston islom harakati” terrorchilik tashkilotining qurollangan bir guruh jangarilari xufyonalik uchun harbiy forma kiyishib, qo`shni Tojikiston tomonidan O`zbekiston davlat chegarasidan yashirin yo`llar bilan o`tishib, Surxondaryo viloyatining Sariosiyo tumani tog'li hududlariga kirib kelganligi aniqlanadi. Ichki ishlar organlarining mard va jasur xodimlari tomonidan 4 – 11-avgust kunlari davomida “Kishtut”, “Xamidarcha” va “Angorqozi” qishloqlarida o`tkazilgan maxsus tadbirlar davomida jami o`n sakkiz nafar jangarilarning yo`q qilinishiga erishilgan, qolgan terrorchilar esa qo`shni davlat hududi orqali Afg'onistonga o`tib ketishgan;

³⁰ <https://iiv.uz/pages/vazirlik-tarixi>

³¹ <https://iiv.uz/pages/vazirlik-tarixi>

– 2000-yil 18-avgust kuni 15 kishidan iborat qurollangan jangarilar Toshkent viloyati Bo`stonliq tumanidagi Chotqol tog'-qo`riqxonasi hududida joylashgan 9209-sonli harbiy qismga hujum qilishadi, otishma davomida 2 nafar chegarachi halok bo`ladi, chekinishga majbur bo`lgan jangarilar esa Chotqol tog' tizmasi hududi bo`ylab yashirinishadi. 27-avgust kuni Bo`stonliq tumanining “Sardala” tog'li hududida hamkorlikda o`tkazilgan maxsus tadbir natijasida 8 nafar jangari yo`q qilinadi, qolganlari esa yashirinishga ulguradi. Biroz o`tib, ya`ni 11-sentyabr“ kuni qolgan jangarilar ham Qirg'iziston Respublikasi Jalolobod viloyati Oqtosh qishlog'ida ekanligi aniqlanib, hamkorlikda yo`q qilinishiga muvaffaq bo`lingan³²;

– 2004-yil 30-iyul kuni soat 16:50 da O`zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining binosiga kirish yo`lagida diniy-ekstremistik oqimi a`zosi badaniga mahkamlangan qo`lbola portlatish qurilmasi orqali o`zini portlatishi oqibatida bir nafar IIV Qo`riqlash bo`limi xodimi xizmat joyida vafot etgan, o`n nafar fuqaro yaralangan. Soat 16:55da Toshkent shahrida joylashgan AQSH elchixonasi yonida yana bir terrorchi tomonidan qo`lbola yasalgan portlovchi moslamaning ishga keltirilishi natijasida ushbu joyda xizmat o`tayotgan ikki nafar IIB xodimi yaralangan. Keyinchalik ushbu terrorchilar va ularning rahnamolari aniqlanib, chet elda yashiringanliklari munosabati bilan qidiruv e`lon qilingan;

– 2005-yil 12-may kuni Andijon shahri markazida 200 ga yaqin “Akromiy” DEO tarafdorlari va ularning oila a`zolari to`planishib, Qirg'iziston Respublikasi hududi orqali O`zbekistonga kirib kelgan 20ga yaqin jangarilar to`dasi boshchiligida 5 ta guruhga bo`lingan holda, Andijon viloyati IIB PPXvaJTSB binosiga, 7377-sonli harbiy qismga, Andijon shahar 1-sonli Tergov hibsxonasiga, viloyat MXXga hamda 44086 va 4821-sonli harbiy qismlarga qurolli hujum uyushtirganlar. Shundan so`ng jangarilar Andijon viloyati hokimiyati binosini egallab olib, hokimiyat vakillari hamda huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarini garovga olishgan. Ularning bir nechtasi namoyishkorona o`ldirilgan. O`zlarining qabih ishlarini berkitish maqsadida aholi orasida soxta ma`lumotlar tarqatib, tartibsizliklar keltirib chiqarishga, shuning natijasida dunyo OAV orasida shov-shuv ko`tarishga harakat qilishgan. Dushman bilan olib borilgan ayovsiz jang natijasida tartibsizliklar to`liq bartaraf etilib, ko`plab jangarilar yo`q qilinadi va qo`lga olinishiga muvaffaq bo`linadi. Ayrim jangarilar qo`shni Qirg'iziston orqali qochib

³² <https://iiv.uz/pages/vazirlik-tarixi>

ketib, turli xorijiy davlatlarda yashirinishga muvaffaq bo`lishadi. Shu bilan birga, afsuski, mazkur qurolli to`qnashuvda 19 nafar ichki ishlar organlari xodimlari mardlarcha halok bo`lishgan³³.

Ko`rib turganimizdek, yuqorida keltirilgan barcha noxush holatlarda ichki ishlar organlarining halol, pok va dovyurak xodimlari ona yurtining aziz tuprog'i va har qarich eri uchun, o`z xalqining xavfsizligi uchun o`zlarining shirin jonlarini xatarga qo`yib bo`lsa-da, mardonavor kurash olib bordilar. Bunday misollarni yana davom ettirish mumkin, albatta.

Shu o`rinda alohida ta`kidlash o`rinliki, mazkur og'ir va sinovli davrlarda ichki ishlar organlarida uzoq yillardan beri xizmat qilib kelgan, boy ish tajribasiga ega, ustoz va murabbiylarning yosh xodimlarga bergan bilim va ko`nikmalari alohida ahamiyat kasb etgan.

Mazkur davrlarda mamlakatimiz rahbariyatining diqqat markazida doimo ichki ishlar idoralarining malakali, etuk tajribali mutaxassislarini tayyorlash, imkon qadar tezkorlik bilan moddiy-texnik bazani mustahkamlash, xodimlarni ijtimoiy qo`llab-quvvatlash masalalari kabilar turdi va bu borada tegishli islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirila borildi.

Sir emaski, islohotlar samaradorligi, birinchi navbatda, kadrlar masalasi bilan bog'liq edi. Shu bois ham, ichki ishlar organlarida malakali kadrlar tayyorlash, yangicha mafkura asosida tarbiya topgan, ma`naviy etuk kadrlarni tayyorlash maqsadida IIV ta`lim muassasalari faoliyati tubdan isloh qilindi. Bu borada 1993- yilda Yong'in xavfsizligi oliy texnik maktabi, 1994-yilda esa IIV Akademiyasi tashkil etilgan³⁴.

Qisqa davr ichida ichki ishlar organlarining shaxsiy tarkibi yetarli malakaga ega bo`lgan kadrlar bilan jamlandi, xodimlarning kasbiy va jangovar mahoratini oshirishga alohida e`tibor qaratildi. Natijada mamlakatda jinoyatchilik sezilarli darajada kamayib, sodir etilgan jinoyatlarning qisqa fursatlarda ochilishiga erishildi.

Bundan tashqari, 1994-yilda O`zbekistonning Interpolga a`zo bo`lishi³⁵ respublika huquq-tartibot organlariga xorijiy davlatlarning huquqni muhofaza qiluvchi organlari bilan hamkorlik qilish, uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashda hamkor davlatlarning kuch va vositalaridan foydalanish imkonini berdi.

³³ <https://iiv.uz/pages/vazirlik-tarixi>

³⁴ <https://akadmvd.uz/uz/menu/istorija-akademii>

³⁵ <https://uznews.uz/ru/article/13498/>

XXI asr bo'sag'asida dunyoda yuz bergan o'zgarishlar, globallashuv jarayonlarining kuchayishi mamlakatimizda ham xavfsizlik va barqarorlikni saqlash, turli tahdidlarga qarshi kurashishda yangicha yondashuvni ishlab chiqishni kun tartibiga qo'ydi. 1999-yil 16-fevral voqealari ichki ishlar organlari tizimida jiddiy kamchiliklar borligini ko'rsatdi.

Shu bois Toshkent shahrida jamoat tartibini va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha yangi kontsepsiya joriy qilinib, unga binoan, shahardagi avvaldan mavjud militsiya uchastka nozirlari o'rniga profilaktika inspektori shtat birliklari ta'sis etildi. "Mahalla posbonlari" va "Yarashtirish komissiyalari" jamoat tuzilmalari tashkil etildi. Bu tuzilmalar joylarda jinoyatchilikka qarshi kurash va uning oldini olish, ichki ishlar organlarining jamoatchilik bilan hamkorligini kuchaytirishga imkon berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001-yil 27-martdagi farmoni³⁶ va uning ijrosini ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan bir qancha qarorlar asosida ichki ishlar organlarining asosiy sohaviy xizmatlarida yangi islohotlar o'tkazilib, ularning faoliyati yanada takomillashtirildi.

Ushbu islohotlar va strukturaviy o'zgarishlar, avvalo, mamlakatdagi tinchlik- osoyishtalikni saqlash, huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikning barcha ko'rinishlariga qarshi kurashish, yurtimizda olib borilayotgan demokratik islohotlarning bardavomligi va uzviyligini ta'minlash, bir so'z bilan aytganda, "kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari" tamoyilini amalga oshirishga harakat qilindi.

Keyingi davrlar mobaynida respublikada fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, jamoat tartibini saqlash, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasi bo'yicha respublikada yaxlit huquqiy tizim yaratilishiga alohida e'tibor qaratildi.

O'z vaqtida va uzoqni ko'zlab amalga oshirilgan mazkur o'zgarishlar mustaqil davlatimizning oyoqqa turishi va dunyo mamlakatlari orasidan o'zining munosib o'rnini egallashida, atrofda ayrim mamlakatlarda keskinlik vaziyati saqlanib turgan bir paytda, mamlakatimizda doimiy barqarorlikning ta'minlanishida muhim omil bo'lib xizmat qildi.

³⁶ Транспортда хавфсизликни таъминлаш бош бошқармаси яралиши тарихи
[/https://iivtransport.uz/index.php/welcome/about/3](https://iivtransport.uz/index.php/welcome/about/3)

Mazkur davr ichida fuqarolar bilan muloqot jarayoni, aholining muammolarini hal etish borasida, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish va profilaktikasi bo'yicha ayrim kamchiliklar kuzatildi. Bu borada o'tkazilgan tadqiqot va tahliliy ishlarning natijasi ichki ishlar organlari faoliyatida bir qator jiddiy kamchilik va muammolar to'planib qolganligini ko'rsatdi. Jumladan:

– respublika, o'rta va quyi bo'g'indagi bo'linmalar o'rtasida asosiy vazifa va funktsiyalarning, shuningdek, amaldagi tashkiliy-shtat tuzilmalari kuch va vositalarining aniq taqsimlanmaganligi;

– II Olari mansabdor shaxslari, shu jumladan, profilaktika inspektorlarining aholi bilan muloqoti yo'lga qo'yilmaganligi, ularning aholi oldida hisobot berib borish amaliyoti yo'qligi, shuningdek, ularning faoliyati ustidan jamoatchilik va parlament nazoratining samarali mexanizmlari joriy etilmaganligi, fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikning etarli emasligi;

– jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga nisbatan yuzaki yondashuvlar fuqarolarning noroziligini keltirib chiqarganligi;

- huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, ularni sodir etish sabab va shart- sharoitlarini tahlil qilish, aniqlash va bartaraf etish bo'yicha tizimli choralar ko'rilmaganligi;

– o'sib kelayotgan yosh avlodni buzg'unchi g'oyalardan himoya qilish amaliyotiga etarlicha e'tibor qaratilmaganligi;

– II Olari xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi zamon talablariga javob bermay qo'yganligi va boshqalar³⁷.

Albatta, ushbu ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etish, tizim faoliyatida amalga oshirilayotgan ishlar samarasiga salbiy ta'sirini kamaytirish, bu borada idoralararo hamkorlikni kuchaytirish ishlari amalga oshirib borildi. Lekin O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev ta'biri bilan aytganda, tizim faoliyatini tubdan takomillashtirish, uni hozirgi kun talablariga moslashtirishni zamonning o'zi taqozo etar edi.

³⁷ <https://iiv.uz/pages/vazirlik-tarixi>

II BOB. YANGI O`ZBEKISTONDA – ICHKI ISHLAR ORGANLARI: ISLOXOTLAR, NATIJALAR

1. O`zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari faoliyatining huquqiy asoslari

Mazkur davr – bevosita O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning tashabbuslari bilan O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo`yicha Harakatlar strategiyasi³⁸ asosida tizimni tubdan takomillashtirish, ichki ishlar organlarini aholiga o`z vaqtida va sifatli yordam ko`rsatadigan, har bir xodim tomonidan “Xalq manfaatlariga xizmat qilish”ni o`z xizmat burchi deb biladigan ijtimoiy yo`naltirilgan professional tuzilmaga aylantirishga qaratilgan keng ko`lamli islohotlar davri bo`ldi.

2016-yilda mustaqil O`zbekistonning 25 yillik tarixida ilk bor “Ichki ishlar organlari to`g`risida”gi Qonun³⁹ qabul qilinib, unda ichki ishlar organlarining asosiy vazifalari, faoliyatining yo`nalish va tamoyillari belgilab berildi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jismoniy hamda yuridik shaxslarning mulkini, konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilish, qonun ustuvorligini, davlatning xavfsizligini ta`minlash, shuningdek, huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida 2016 yilning 16-sentyabrida imzolangan “Ichki ishlar organlari to`g`risida”gi Qonun mazkur tizim faoliyatini huquqiy jihatdan yanada mustahkamladi⁴⁰.

Ayni paytda xavfsizlik, tinchlik-totuvlikni asrash, bunda ichki ishlar idoralari mas`uliyatini kuchaytirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda yuksak malakali, professional kadrlar tayyorlashni yo`lga qo`yish, shaxsiy tarkibning nafaqat kasb mahorati, balki ma`naviy-ma`rifiy, huquqiy bilimni oshirish borasida olib borilayotgan chora-tadbirlar sohadagi ishlar samaradorligini kuchaytirmoqda.

Huquq-tartibotni saqlash va jinoyatchilikka qarshi kurashishning zamonaviy usullaridan foydalangan holda jamoat xavfsizligini

³⁸ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2017 – 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегияси” ПФ-4947-сонли фармони // Халқ сўзи. – 2017. – № 28. – Б. 1-2.

³⁹ “Ички ишлар органлари тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси Қонуни. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси томонидан 2016 йил 12 августда қабул қилинган, Сенат томонидан 2016 йил 24 августда маъқуланган /<https://www.lex.uz/acts/3027843>

⁴⁰ Ички ишлар органлари фаолиятининг ҳуқуқий асоси./<https://old.xs.uz/index.php/homepage/sijosat/item/9790-ichki-ishlar-organlari-faoliyatining-u-u-ij-asosi>

ta`minlashning o`ziga xos tizimi yaratilgani yurtimizdagi xotirjamlikni kafolatlashda asosiy omil bo`layotir.

2017-yilning 17-martida kuchga kirgan ushbu Qonun ichki ishlar organlari maqomi, faoliyatining shakl va usullarini har tomonlama tartibga solish barobarida, uni yangi bosqichga ko`tarishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir⁴¹.

Binobarin, Qonunda ichki ishlar organlari asosiy vazifalari, faoliyat yo`nalishlari va printsiplari mustahkamlab qo`yildi. Ichki ishlar organlarining fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoyasini, jamoat tartibini va jamoat xavfsizligini, yuridik hamda jismoniy shaxslar mol-mulki himoyasini ta`minlash bilan bog'liq vazifalari huquqiy jihatdan kafolatlandi.

Qonunning bugungi kunda dolzarbligi, yangiligi haqida to`xtalib o`tadigan bo`lsak, avvalambor, unda ichki ishlar organlarining vakolat va majburiyatlari, shuningdek, ushbu idoralarda xizmat o`tash tartibi va shartlari, xodimlarning huquqiy va ijtimoiy himoyasi yaxlit hujjatda mujassam etilganini ta`kidlash lozim. Mazkur sohani huquqiy tartibga solishning xorijiy va milliy tajribasi inobatga olingan holda ishlab chiqilgan Qonun O`zbekiston Respublikasida ilk bor ichki ishlar organlari va xodimlarining davlat miqyosida huquqiy maqomini qonun darajasida mustahkamlash, ularning ijtimoiy zarurati va ahamiyatini e`tirof etishda ham muhim o`rin tutadi.

Ushbu hujjatning asosiy yo`nalishi – ichki ishlar organlari faoliyatini amalga oshirish jarayonida fuqarolar huquqiy himoyasini ta`minlashga qaratilgan, huquqbuzarliklarning oldini olish va unga chek qo`yishdan iborat. SHu bilan birga, shaxslarni ham noqonuniy ijtimoiy xavfli xurujlardan, ham xodimlar tomonidan ichki ishlar organlariga yuklatilgan vazifalarni bajarish chog'idagi noqonuniy xatti-harakatlardan himoya qilishni ta`minlaydi.

Qonunda ichki ishlar organlari faoliyatining asosiy printsiplarining har biri alohida ochib berilgan, qo`llash uchun ruxsat etilgan maxsus vositalarning muayyan ro`yxati, fuqarolarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlariga rioya qilish kafolatlari nazarda tutilgan.

Ma`lumki, so`nggi yillarda yoshlar o`rtasida ichki ishlar organlari tizimida xizmatni o`tash hamda ishga kirishga bo`lgan qiziqish ortib bormoqda. Shuni inobatga olgan holda aytish joizki, Qonunda ichki

⁴¹ Ички ишлар органлари фаолиятининг ҳуқуқий асоси / <https://old.xs.uz/index.php/homepage/sijosat/item/9790-ichki-ishlar-organlari-faoliyatining-u-u-ij-asosi>

ishlar organlariga xizmatga qabul qilish va xizmatdan bo`shatish bilan bog'liq xizmat munosabatlarining tartibga solingani, bu borada ochiqlik va oshkoralik tamoyillari belgilab qo`yilgani hamda ichki ishlar organlari xodimlarining ijtimoiy va huquqiy himoyasini ta`minlashga qaratilgan bir qator normalar mustahkamlangani ham diqqatga sazovor. Bu esa, o`z navbatida, ushbu tizimda xizmat qilishga bel bog'lagan mard, jasur va vatanparvar yoshlar safini yanada kengaytirish, ayni paytda ichki ishlar organlari xodimlarining o`z xizmat vazifalarini sidqidildan bajarishlarini ta`minlashda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Umuman, Qonunda ichki ishlar organlari faoliyatining eng muhim tamoyillari sifatida qonuniylik, huquqni hurmat qilish va unga rioya etish, fuqarolarning erkinligi va qonuniy manfaatlari, ochiqlik va shaffoflik kabi umuminsoniy qadriyatlar o`z ifodasini topgan. e`tiborlisi, mazkur hujjat sohaga doir qonun hujjatlarini yaxlitlashtirish orqali amaldagi tizimning faoliyat samaradorligini yanada oshirish, jamoat tartibini saqlash va tinchlik-osoyishtalikning barqarorligini ta`minlash, pirovardida aholi turmush farovonligini yanada yuksaltirishga hamda mamlakatimiz taraqqiyotini jadallashtirishga xizmat qiladi⁴².

O`z navbatida, O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo`yicha Harakatlar strategiyasi doirasida ichki ishlar organlari faoliyatini tubdan isloh qilish bo`yicha mutlaqo yangi davr boshlandi. Harakatlar strategiyasida belgilangan 5 ta ustuvor yo`nalishning har biri mamlakatdagi islohotlarni va yangilanishlarni yanada chuqurlashtirishga oid aniq bo`limlarni o`z ichiga oladi⁴³.

Jumladan, ikkinchi ustuvor yo`nalish sifatida mamlakatda qonun ustuvorligini ta`minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishga qaratilgan ko`plab vazifalar belgilab berildi.

Darhaqiqat, mustaqillik yillarida bosib o`tilgan yo`l va orttirilgan tajriba, erishilgan yutuqlar, yo`l qo`yilgan kamchiliklarni xolisona baholash, ayni vaqtda bugungi kunda yuzaga kelayotgan xavf-xatar va tahdidlarni tahlil qilish asnosida ichki ishlar organlari oldiga o`z vaqtida ularning oldini olish va ularga barham berish bo`yicha yangi vazifalar qo`yilmoqda.

O`tgan qisqa davr ichida ichki ishlar organlarining faoliyatini tubdan takomillashtirishga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirildi.

⁴² Ички ишлар органлари фаолиятининг ҳуқуқий асоси / <https://old.xs.uz/index.php/homepage-sijosat/item/9790-ichki-ishlar-organlari-faoliyatining-u-u-ij-asosi>

⁴³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2017 – 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегияси” ПФ-4947-сонли фармони // Халқ сўзи. – 2017. – № 28. – Б. 1-2.

Ichki ishlar organlarini xalq manfaatlariga xizmat qiladigan ijtimoiy tuzilmaga aylantirish maqsadida mustahkam huquqiy baza yaratilgan. Jumladan, 6 qonun, Prezidentimizning 7 farmoni va 40 qarori, Vazirlar Mahkamasining 89 qarori hamda 160 dan ziyod idoraviy normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi⁴⁴.

Jumladan, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-apreldagi PF-5005-sonli farmoni⁴⁵ da keyingi yillarda ichki ishlar organlari faoliyatida to`planib qolgan jiddiy kamchilik va muammolar tahlil qilinishi barobarida, ularni bartaraf etish, ichki ishlar organlari tizimini isloh qilishning eng muhim yo`nalishlari hamda mamlakatimiz tarixida ilk bor ichki ishlar organlari rahbarlarining parlament, deputatlar va keng jamoatchilik oldida o`z vazifalarining bajarilishi yuzasidan hisobot berish tartibi belgilab berildi. Farmon bilan “Ichki ishlar organlari tizimini tubdan isloh qilish kompleks chora-tadbirlar dasturi” ham tasdiqlandi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-apreldagi qarori bilan “Ichki ishlar vazirligi to`g`risida”gi nizom tasdiqlandi⁴⁶.

Yuqoridagi farmon va qarorlar ijrosini ta`minlash maqsadida qisqa davr ichida ulkan ishlar amalga oshirildi. Bunda, eng avvalo, huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishga faqatgina ichki ishlar yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vazifasi deb emas, balki barcha davlat organlari va aholi qatlamlarining vazifasi, ya`ni umumdavlat va umumxalq ishi sifatida qarash, bu borada barcha davlat va nodavlat tashkilotlari va keng jamoatchilikning kuch va imkoniyatlarini safarbar etish, aholining barcha qatlamlari huquqiy madaniyatini oshirish, jamiyatda qonunga hurmat, qonun buzilishining har qanday ko`rinishiga murosasizlik muhitini yaratish yo`li bilan huquqbuzarliklarning barvaqt profilaktikasi va oldi olinishini ta`minlashga e`tibor qaratildi.

Ichki ishlar organlari faoliyatiga doir bo`lgan boshqa bir qator normativ- huquqiy hujjatlar asosida tizimda juda katta islohotlar amalga oshirildi. Xususan:

– ichki ishlar organlarining yagonalik printsipini ta`minlash uchun O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 24-dekabrdagi “O`zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining bayrog'i va

⁴⁴<https://yuz.uz/news/ichki-ishlar-organlarini-xalq-manfaatlariga-xizmat-qiladigan-ijtimoiy-tuzilmaga-aylantiriladi>

⁴⁵ “Ички ишлар органларининг фаолияти самарадорлигини ошириш, жамоат тартибини, фуқаролар ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини ишончли ҳимоя қилишни таъминлашда уларнинг маъсулиятини кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида” ПФ-5005-сонли Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони / <https://lex.uz/docs/3159827>

⁴⁶ https://www.norma.uz/qonunchilikda_yangi/iiv_tugrisidagi_yangi_nizom_tasdiqlandi

emblemasi namunalarini tasdiqlash to`g'risida”gi PF-5602-son farmoni asosida IIVning bayroq va emblemasi tasdiqlandi⁴⁷;

– O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 apreldagi “Ichki ishlar organlari faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to`g'risida”gi PQ-2883-son qarori⁴⁸ bilan tizimning boshqaruv apparati 70 foizga maqbullashtirib, tuman-shahar IIOlarining shtatlar soni to`rt barobarga oshirildi;

– O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-apreldagi “Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo`linmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to`g'risida”gi PQ-2896-son qarori⁴⁹ bilan mavjud profilaktika inspektorlari soni maqbullashtirildi;

– O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Ichki ishlar

organlari tayanch punktlarining profilaktika inspektorlarini xizmat uy-joyi bilan⁵⁰ ta`minlashga doir qo`shimcha chora-tadbirlar to`g'risida”gi PQ-2906-son qarori⁵¹ bilan profilaktika inspektorlariga birlashtirilgan xizmat hududlarida ularga xizmat uylari va imtiyozli kreditlar asosida shaxsiy avtomashinalar ajratilish tizimi yo`lga qo`yildi;

– jinoyat ishlarining sifatli va qisqa muddatlarda tergov qilinishini ta`minlash maqsadida O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-apreldagi “Ichki ishlar organlarining jinoyatlarni tergov qilish sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to`g'risida”gi PQ-2898-son qarori⁵² bilan O`zbekiston Respublikasi huquqiy tizimida nisbatan yangi surishtiruv instituti joriy etildi;

– O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-maydagi “Ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta`minlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish

⁴⁷ “Ichki ishlar faoliyatini yanada takomillashtirishga doir toshkiliy chora-tadbirlar t`g'risida” PQ-2883-son `zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori / <https://lex.uz/docs/3165013>

⁴⁸ “Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi b`linmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari t`g'risida” PQ-2896-son `zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori / <https://lex.uz/docs/3175732>

⁴⁹ “`zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligining bayrogi va emblemasini namunalarini tasdiqlash t`g'risida” PF-5602-son `zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni / <https://lex.uz/docs/4122457>

⁵⁰ “Ichki ishlar organlari tayanch punktlarining profilaktika inspektorlarini xizmat uy-joyi bilan ta`minlashga doir chora-tadbirlar t`g'risida” PQ-2906-son `zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori / <https://www.lex.uz/docs/3175657>

⁵¹ “Ichki ishlar organlarining jinoyatlarni tergov qilish sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlar t`g'risida” PQ-2898-son `zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori / <https://lex.uz/docs/3180665>

⁵² “Ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta`minlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari t`g'risida” PQ-2940-son `zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori / <https://www.lex.uz/docs/3202965>

chora-tadbirlari to`g'risida”gi PQ-2940-son⁵³ hamda 2017-yil 11-iyuldagi “Yo`l harakati xavfsizligini ta`minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g'risida”gi PQ-3127-son⁵⁴ qarorlari bilan jamoat tartibini saqlash hamda yo`l harakati xavfsizligini ta`minlash samaradorligi yanada oshirilib, patrul“-post va yo`l-patrul“ xizmatlari sohaga oid bo`lmagan bir qator vazifalardan ozod etildi;

– aholiga pasport xizmatlarini ko`rsatish borasida qo`shimcha qulayliklarni yaratish maqsadida O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 11-iyuldagi “Ichki ishlar organlarining migratsiya jarayonlari va fuqarolikni rasmiylashtirish;

3126-son qarori⁵⁵ bilan sohaga elektron navbat kabi zamonaviy axborot kommunikatsiyalari hamda xorijga chiqish zamonaviy “Biometrik” pasportlar bilan ta`minlash ishlari yo`lga qo`yildi;

– ozodlikdan mahrum etilgan fuqarolarni jamiyatga to`liq moslashuvini ta`minlash uchun ularni kasbga o`rgatish va ish bilan ta`minlash maqsadida O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 11- avgustdagi “Ichki ishlar organlarining ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo`lgan jazolarni ijro etish sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to`g'risida”gi PQ-3200-son qarori⁵⁶ bilan jazoni ijro etish tizimi tubdan isloh qilinib, ularda ishlab chiqarish tizimi yo`lga qo`yildi;

– IIolari uchun professional kadrlarni tayyorlash maqsadida, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-avgustdagi “Ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to`g'risida”gi PQ-3216-son qarori⁵⁷ bilan IIV Akademiyasida 7 ta yo`nalishlar bo`yicha o`qitish tizimi va 2 ta ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyati yo`lga qo`yildi hamda joylarda 14 ta akademik litseylar joriy etildi;

– O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrdagi “Ichki ishlar organlari kadrlari bilan ishlash va ularning xizmatini tashkil

⁵³ “Йўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлаш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ПҚ-3127-сон Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори / <https://lex.uz/docs/3266524>

⁵⁴ “Ички ишлар органларининг миграция жараёнлари ва фуқароликни расмийлаштириш; соҳасидаги фаолиятини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ПҚ-3126-сон Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори / <https://lex.uz/docs/3266578>

⁵⁵ “Ички ишлар органларининг озодликдан маҳрум этиш билан боғлиқ бўлган жазоларни ижро этиш соҳасидаги фаолиятини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ПҚ-3200-сон Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори / <https://lex.uz/docs/3309651>

⁵⁶ “Ички ишлар органлари ходимларини тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ПҚ-3216-сон Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори / <https://lex.uz/docs/3313218>

⁵⁷ “Ички ишлар органлари кадрлари билан ишлаш ва уларнинг хизматини ташкил этиш тартибини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ПҚ-3413-сон Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори / <https://lex.uz/docs/3430641>

etish tartibini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to`g'risida”gi PQ-3413-son qarori⁵⁹ talablari asosida kadrlar bilan ishlashning mutlaqo yangi tizimi joriy etilib, IIOning “Intizom ustavi” va “Ichki xizmat nizomi” amaliyotga to`liq kiritildi, xodimlarni ijtimoiy, ma`naviy va ruhiy ta`minlash ishlari tizimlashtirildi;

– Toshkent shahrida jamoat xavfsizligini ta`minlashning yangi modelini shakllantirish maqsadida O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14- fevraldagi “Toshkent shahrida jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish to`g'risida”gi PQ-3528-son qarori⁵⁸ bilan poytaxt miqyosida ichki ishlar bo`limlari faoliyati yo`lga qo`yildi, shuningdek, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-iyundagi “Toshkent shahrida jamoat tartibini ta`minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshirish bo`yicha qo`shimcha chora-tadbirlar to`g'risida”gi PQ-3786-son qarori⁵⁹ bilan poytaxtda jamoat tartibini saqlash uchun IIolari, Milliy gvardiya va jamoatchilik bilan birgalikda tashkil etilgan 3 smenali, kunu-tun patrullik xizmati faoliyati yo`lga qo`yildi;

– O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 23-avgustdagi “Ichki ishlar organlari boshqaruv, nazorat va shaxsiy tarkib bilan ishlashning samarali tizimini joriy etish bo`yicha chora-tadbirlar to`g'risida”gi PQ-3919-son qarori⁶⁰ bilan IIOning yagona boshqaruv tizimi sifatida tashkiliy bo`linmalar, shuningdek, rahbar xodimlar zaxirasini tayyorlash maqsadida Malaka oshirish instituti tashkil etildi;

– O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-noyabrdagi “Jinoyat- ijroiya qonunchiligini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to`g'risida”gi PQ-4006-son qarori⁶¹ bilan Probatsiya xizmati hamda mahkumlarning huquqlarini to`liq kafolatlashga qaratilgan jinoyat-ijroiya qonunchiligini qayta ishlab chiqish ishlari tashkil etildi;

⁵⁸ “Toshkent shahrida jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish to`g'risida” PQ-3528-son Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори / <https://lex.uz/docs/3556832>

⁵⁹ “Toshkent shahrida jamoat tartibini ta`minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshirish bo`yicha qo`shimcha chora-tadbirlar to`g'risida” PQ-3786-son Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори / <https://www.lex.uz/docs/3786903>

⁶⁰ “Ichki ishlar organlari boshqaruv, nazorat va shaxsiy tarkib bilan ishlashning samarali tizimini joriy etish bo`yicha chora-tadbirlar to`g'risida” PQ-3919-son Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори / <https://lex.uz/docs/3877315>

⁶¹ “Jinoyat-ijroiya qonunchiligini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to`g'risida” PQ-4006-son Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори / <https://lex.uz/docs/4045443>

– joylardagi hokimlar tomonidan huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatini kunlik tashkil etish va bu borada amalga oshirilayotgan ishlarni xalq deputatari kengashida har oyda muhokama qilish tartibi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 24-dekabrda “Jamoat xavfsizligini ta`minlash samaradorligini oshirish bo`yicha qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida”gi PQ-4075-son qarori⁶² talablari asosida yo`lga qo`yildi;

– turizm va transport infratuzilmasi ob`ektlarida mamlakatimizga kelayotgan xorijiy sayyohlarning xavfsizligini ta`minlash bo`linmalari faoliyati O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-martdagi “Transport va turizm ob`ektlarida jamoat xavfsizligini ta`minlashning samarali tizimini joriy etishga oid qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida”gi PQ-4229-son qarori⁶³ talablari asosida yanada jadallashtirildi;

– Jamiyatda qonun ustuvorligini ta`minlash, aholi huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, ularning hayotdan roziligini, ertangi kunga ishonchini yanada mustahkamlash, osoyishta umr kechirishini kafolatlashga oid sa`y- harakatlarning izchil amalga oshirilishi ko`p jihatdan ichki ishlar tizimi faoliyatiga bevosita bog`liq. Shu maqsadda, 2021-yil 26-mart kuni “Jamoat xavfsizligini ta`minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko`tarish chora-tadbirlari to`g`risida”gi PF-6196-son Prezident Farmoni⁶⁴ qabul qilindi.

Farmonga ko`ra, har bir mahalla, oila va shaxs kesimida huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishga oid muammolar bevosita joylarning o`zida hal etiladi. Ichki ishlar organlarining tayanch punktlari negizida mahalla huquq-tartibot maskanlari tashkil etiladi. Dastlab mahalla huquq-tartibot maskanlari Toshkent shahrida namunaviy tarzda tashkil etiladi. Toshkent va Samarqand viloyatlarida 2021-yil 1-iyungacha profilaktika inspektoriga masofadan turib murojaat yuborish va uni ko`rib chiqish jarayonini kuzatib borish imkonini beruvchi “Smart mahalla” axborot

⁶² “Жамоат хавфсизлигини таъминлаш самарадорлигини ошириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-4075-сон Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори / <https://lex.uz/docs/4124831>

⁶³ “Транспорт ва туризм объектларида жамоат хавфсизлигини таъминлашнинг самарали тизimini жорий этишга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-4229-сон Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори / <https://lex.uz/docs/4229310>

⁶⁴ “Жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши курашиш соҳасида ички ишлар органлари фаолиятини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида” ПФ-6196-сон Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони / <https://lex.uz/docs/5344118>

dasturi ishga tushiriladi. Mazkur axborot dasturi 2021-yil yakunigacha respublikaning boshqa hududlarida ishga tushiriladi.

Yuqoridagilar bilan birga, jazoni o'tayotgan shaxslarning haq-huquqlarini ta'minlash borasidan ham ulkan ishlar qilindi. Bu borada ularning jazo o'tash sharoitlari yaxshilandi. Zamonga mos kelmaydigan eski koloniyalar o'rniga mahkumlar mehnat qilishlari uchun erkin iqtisod talablariga to'la javob beradigan ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi, jamoatchilik o'rtasida salbiy nom qozongan "Jasliq" koloniyasi tugatildi⁶⁵.

Ilg'or xorijiy tajribalarga mos ravishda, shuningdek, Konstitutsiyamiz talablari asosida mahkumlarga parlament va joylardagi xalq deputatlarini saylash imkoniyati yaratildi. Shu bilan birga, mahkumlarga qarindoshlari bilan qo'shimcha uchrashuvlar va telefon so'zlashuvlarini amalga oshirish, ularning ijtimoiy sug'urta va pensiya ta'minotini olish kabi huquqlari doirasi kengaytirildi.

Vazirlik sohaviy xizmatlari va hududiy bo'linmalarining vazifa va funktsiyalarini maqbullashtirish bo'yicha institutsional yondashuv, shuningdek, tizimga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash, xodimlarning ijtimoiy himoyasi va maishiy sharoitlarini yaxshilash kabi amaliy ishlar ularning o'z xizmat vazifalarini mukammal bajarishlari uchun munosib shart-sharoit yaratish imkonini bermoqda.

Bugungi kunda rahbar xodimlarning o'z faoliyati yakunlari yuzasidan aholi oldida hisobot berish tartibi, tizimda ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar ichki ishlar organlari faoliyatini yanada takomillashtirishga, shuningdek, xodimlarning mas'uliyatini yanada oshirishga xizmat qilmoqda.

Eng asosiysi, tizimdagi bu o'zgarishlar mamlakat rahbariyatining doimiy diqqat e'tiborida bo'lib kelmoqda. Yurtboshimizning mamlakat hududlari bo'ylab qilinayotgan safarlarida, albatta, u erda xizmat olib borayotgan ichki ishlar organlari xodimlari, birinchi navbatda, profilaktika inspektorlarining xizmat faoliyati, ularga yaratib berilayotgan sharoitlar bilan bevosita tanishayotganligi, qisqa vaqt ichida bu boradagi ishlarning ahvoli bir necha marta Prezident huzuridagi yig'ilishlarda keng muhokama etilayotganligi buning isbotidir.

⁶⁵ "Қорақалпоғистон Республикаси Ички ишлар вазирлигининг 19-сон ихтисослаштирилган жазони ижро этиш калониясини тугатиш тўғрисида / <https://lex.uz/ru/docs/4459347>

2019-yilning 10-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev raisligida o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida ham bu boradagi ishlar tanqidiy muhokama qilinib, Ichki ishlar vazirligiga vaziyatni tubdan yaxshilash, chuqur tahlil asosida mavjud kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ni ishlab chiqish vazifasi topshirildi⁶⁶.

Huquqbuzarliklarning oldini olish va unga qarshi samarali kurashish bo'yicha mahalliy shart-sharoitlardan kelib chiqib, "hududlar tajribasi"ni joriy etish, kriminogen vaziyat og'ir bo'lgan hududlarda ilmiy-tadqiqot ishlari o'tkazib, jinoyatchilik ahvoli o'zgarishini kriminologik prognozlash bo'yicha uslubiy qo'llanma ishlab chiqish kabi vazifalar qo'yildi.

Joylarda huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligini oshirish uchun uyushmagan yoshlar va xotin qizlar bilan ishlash sohasiga ham alohida yondashildi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining 2019- yil 2- sentyabrdagi "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risidagi" qonuni⁶⁷ asosida, tazyiq va zo'rvonlikdan jabr ko'rgan xotin-qizlarga davlat himoyasini taqdim etuvchi "Himoya orderi"ni berish amaliyoti kiritildi.

Xalqimizning mushkulini oson qilish maqsadida, IIO faoliyatiga zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish masalalariga alohida e'tibor berilmoqda. Bu borada, aholiga pasport berish va fuqarolikni rasmiylashtirish sohasida qulaylik yaratilib, elektron tarzda navbat kutish tizimi joriy etildi. Fuqarolarga ichki ishlar organlari tizimdagi ayrim xodimlarning noo'rin xatti-harakatlari ustidan shikoyat qilish imkoniyati yaratilib, 24 soat faoliyat ko'rsatuvchi "1102" qisqa raqamli Kolltsentr, shuningdek, odam savdosi bilan bog'liq holatlar bo'yicha "99 301-01-01" yagona ishonch telefon aloqalari faoliyati yo'lga qo'yildi⁶⁸.

Tizimda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar va yangiliklar haqida IIVning www.iiv.uz rasmiy veb-sayti orqali tanishish mumkin, tegishli ma'lumotlar doimiy ravishda joylashtirilib boriladi va keng omma e'tiboriga havola etishga imkon beradi.

⁶⁶ <https://iiv.uz/pages/vazirlik-tarixi>

⁶⁷ "Хотин-қизларни тазйик ва зўравонликдан ҳимоя қилиш тўғрисида" Ўзбекистон Республикаси Қонуни. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси томонидан 2019 йил 17 августда қабул қилинган, Сенат томонидан 2019 йил 23 августда маъқулланган / <https://www.lex.uz/docs/4494709>

⁶⁸ <https://iiv.uz/pages/vazirlik-tarixi>

Ichki ishlar organlari faoliyatining jamoatchilikka o`z vaqtida etkazib borilishi lozimligini nazarda tutib, tizimda 20 dan oshiq veb-sayt hamda 100 dan ortiq ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalar joriy etildi.

2. O`zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi faoliyatiga bir nazar

O`zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi, tartibga soluvchi va nazorat qiluvchi organ O`zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi hisoblanadi.

O`zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi – O`zbekiston Respublikasi ijroiya hokimiyati organi hisoblanib, o`z vakolatlari doirasida fuqaro va inson erkinligi va huquqlarini himoyalashda davlat boshqaruvini amalga oshiradigan, huquq-tartibotni saqlash, jamoat xavfsizligini ta`minlash va bevosita O`zbekiston Respublikasi Ichki ishlar organlari va Ichki ishlar vazirligining ichki qo`shinlari faoliyatining asosiy yo`nalishlarini amalga oshiradi.

Ichki ishlar vazirining ham o`ziga xos tarixi bor. 1919-yil 26- iyunda Turkiston ASSR Ichki Ishlar Xalq Komissariatining “Rossiya Sovet Federatsiyasining Turkiston Respublikasidagi Sovet ishchi-dehqon militsiyasi to`g`risidagi Nizom”, o`sha yilning iyul oyida qabul qilingan “Turkiston ASSRda, jinoiy qidiruvni tashkil etish to`g`risidagi Nizom”, 1948-iilda qabul qilingan “Militsiya postlari va patrul xizmatining Nizomi”, 1953-yil 20- iyuldagi O`zbekiston SSR Vazirlar Kengashining “O`zbekiston SSRda jinoyatchilikka qarshi kurashni kuchaytirish va jamoat tartibini saqlash choralari to`g`risida”gi qarori, ichki ishlar idoralarida dastlabki tergov yuritish huquqini bergan sobiq ittifoq Oliy Kengashi Rayosatining 1963-yil 6-apreldagi “Jamoat tartibini saqlash idoralariga dastlabki tergovni olib borish huquqini berish to`g`risida”gi farmonlari O`zbekiston SSR ichki ishlar organlari faoliyatining asosi bo`lgan.

O`zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so`ng, ichki ishlar idoralari faoliyatida ko`plab o`zgarishlar amalga oshirildi. Vazirlik Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 8-yanvardagi 16-sonli “Ichki ishlar idoralarida xizmat o`tash tartibi haqidagi Nizom”, 2001-yil 27-mart kuni O`zbekiston Prezidentining “Ichki ishlar idoralari faoliyatini takomillashtirish to`g`risida”gi farmoni asosida ishlamoqda. O`zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligining Nizomi va tuzilmasi O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1991-yil 25-oktabrdagi № 270-sonli qarori bilan tasdiqlangan. 2006-yil

25- oktyabrdagi Oliy Majlis qaroriga muvofiq, shu kun ichki ishlar xodimlari kuni deb belgilandi⁶⁹.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tuzilmasida quyidagilar tashkil etildi: Jinoyat qidiruv bosh boshqarmasi, Terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish bosh boshqarmasi, Tezkor-qidiruv hamkorligi boshqarmasini o'z ichiga oladigan Tezkor-qidiruv departamenti, Patrul"-post xizmati va jamoat tartibini saqlash bosh boshqarmasi, Huquqbuzarliklar profilaktikasi bosh boshqarmasi, Yo'l harakati xavfsizligi bosh boshqarmasi, Probatsiya xizmatini o'z ichiga oladigan Jamoat xavfsizligi departamenti, Transportda xavfsizlikni ta'minlash bosh boshqarmasi, Xavfsiz turizmni ta'minlashni muvofiqlashtirish boshqarmasini o'z ichiga oladigan Transport va turizm ob'ektlarida xavfsizlikni ta'minlash departamenti, Kadrlar bosh boshqarmasi, Ma'naviy-ma'rifiy ishlar boshqarmasi, kasbiy tayyorgarlik boshqarmasini o'z ichiga oladigan Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash departamenti, Huquqiy statistika va tezkor-hisob ma'lumotlar markazi (Bosh prokuraturaning Jinoiy-huquqiy statistika boshqarmasi va uning hududiy bo'linmalari tugatildi), Jamoat xavfsizligi masalalari ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi. Shuningdek, Jazoni ijro etish bosh boshqarmasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Jazoni ijro etish departamenti etib qayta tashkil etildi.

Hududiy ichki ishlar organlarining tuzilmasida ichki ishlar organlari boshliqlarining jamoat tartibini saqlash bo'yicha, probatsiya va jazoni ijro etish masalalari bo'yicha o'rinbosari, huquqbuzarliklar profilaktikasi boshqarmasi (bo'limi) boshlig'i lavozimlari tugatildi⁷⁰.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi markaziy devoni quyidagi organlardan tuzilgan:

Vazir – Bobojonov Po'lat Razzoqovich;

Kotibiyat; Tashkiliy boshqarmasi; O'z xavfsizligi boshqarmasi; Xalqaro hamkorlik boshqarmasi; Interpol milliy markaziy byurosi; Matbuot xizmati; Harbiy safarbarlik ishlari va fuqarolar mudofaasi bo'limi; Nazorat-taftish inspeksiyasi; Ikkinchi bo'lim; Yuridik bo'lim⁷¹.

Vazirning birinchi o'rinbosari – Sobirov Shuxratjon Urinbayevich;

Jinoyat qidiruv bosh boshqarmasi; Terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish bosh boshqarmasi; Safarbarlik maxsus otryadlari

⁶⁹ https://uz.wikipedia.org/wiki/O'zbekiston_Respublikasi_Ichki_ishlar_vazirligi

⁷⁰ https://uza.uz/uz/posts/ichki-ishlar-organlari-faoliyatida-yangi-mexanizmlar-zhoriy-etiladi_252221

⁷¹ https://ru.wikipedia.org/wiki/Министерство_внутренних_дел_Узбекистана

boshqarmasi; Yettinchi boshqarma; Portlovchi moddalarni aniqlash, zararsizlantirish va yo‘q qilish ishlari bo‘limi.

Vazir o‘rinbosari – Ikramov Azizbek Israilovich;

Patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash bosh boshqarmasi; Huquqbuzarliklarni oldini olish bosh boshqarmasi; Yo‘l harakati xavfsizligi bosh boshqarmasi; Migratsiya va fuqarolik ishlari bosh boshqarmasi. -

Vazir o‘rinbosari – Nishanbaev Saidkarim Abduhakimovich;

Moliya, moddiy texnika va harbiy ta‘minot boshqarmasi; Xo‘jalik boshqarmasi; Kapital qurilish va ta‘mirlash boshqarmasi; Qishloq xo‘jaligi sohasida nazorat bo‘limi; Suv xo‘jaligi sohasida nazorat bo‘limi.

Vazir o‘rinbosari – Kadirov Doniyor Baxiyorovich; Tergov departamenti;

Ekspert-kriminalistika boshqarmasi; Axborot texnologiyalari, aloqa va axborotni himoyalash boshqarmasi; Transportdagi ichki ishlar boshqarmasi; Xavfsiz turizm boshqarmasi.

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tarkibiga kiruvchi qarovchi hududiy boshqarmalar: Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi; Toshkent shahar ichki ishlar bosh boshqarmasi; Toshkent viloyati ichki ishlar bosh boshqarmasi; Andijon viloyati ichki ishlar boshqarmasi; Buxoro viloyati ichki ishlar boshqarmasi; Jizzax viloyati ichki ishlar boshqarmasi; Farg‘ona viloyati ichki ishlar boshqarmasi; Qashqadaryo viloyati ichki ishlar boshqarmasi; Navoiy viloyati ichki ishlar boshqarmasi; Namangan viloyati ichki ishlar boshqarmasi; Samarqand viloyati ichki ishlar boshqarmasi; Sirdaryo viloyati ichki ishlar boshqarmasi; Xorazm viloyati ichki ishlar boshqarmasi⁷².

Ma‘lumotlarga ko‘ra, bugungi kunda O‘zbekistonda ichki ishlar xodimlari soni 120 mingdan ortiq.

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining shiori – “Xalq marnfaatlariga xizmat qilish”.

O‘zbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissarlari:

1. Rayskiy Naum Markovich (15-iyul – 4 noyabr 1934).
2. Zalin Lev Barisovich (4-noyabr 1934 – 9-yanvar 1935).
3. Zagvozdin Nikolay Andreevich (9-yanvar 1935 – 19-avgust 1937).

⁷² https://ru.wikipedia.org/wiki/Министерство_внутренних_дел_Узбекистана

4. Apresyan Derenik Zaxarovich (19-avgust 1937 – 21-noyabr 1938).
5. Sadjaya Aleksey Nikolaevich (19-dekabr 1938 – 26-fevral 1941).
6. Babajanov Yuldash Babajanovich (26-fevral – 31-iyul 1941).
7. Kobulov Amayak Zaxarovich (31-iyul 1941 – 18-yanvar 1945).

O`zbekiston SSR Ichki ishlar minstrlari:

1. Babajanov Yuldash Babajanovich (9-noyabr 1945 – 16-mart 1953).
2. Bizov Aleksey Petrovich (16-mart 1953 – 17-aprel 1954).
3. Babajanov Yuldash Babajanovich (17-aprel 1954 – 19-aprel 1957).
4. Jalilov Tojtdin Azimovich (19-aprel 1957 – 11-mart 1964).
5. Yaxyoyev Xaydar Xalikovich (11-mart 1964 – 5-iyul 1979).
6. Ergashev Qudrat Ergashevich (5-iyul 1979 – iyun 1983).
7. Ibragimov Ne`matjon Ibragimovich (30-iyun 1983 – 1985).
8. Rahimov Uchqun Sodiqovich (30-dekabr 1985 – iyul 1989).
9. Kamalov Vyacheslav Muxtarovich (2-avgust 1989 – 15-iyun 1991).

O`zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirlari:

10. Rahimov G`ofur Rahimovich (15- iyun – 16-sentyabr 1991).
11. Almatov Zakirjon Almatovich (16-sentyabr 1991 – 5-yanvar 2006) – polkovnik, 1992 – general-mayor, 1996 – general-leytenant, 1999 – general- polkovnik.
12. Matlyubov Bahodir Ahmedovich (6-yanvar 2006 – 12-dekabr 2013) –general-leytenant.
13. Axmedbayev Adxam Akramovich (12-dekabr 2013 – 4-yanvar 2017) –general-leytenant (2017-yilda bekor qilingan).
14. Azizov Abdusalom Abdumavlonovich (4-yanvar – 4-sentyabr 2017) –2017 – general-mayor, 2019 – general-leytenant.
15. Bobojonov Po`lat Razzoqovich (2017-yildan – h.v.) – 2019 - general- leytenant⁷³.

Ichki ishlar vazirligining IIVning bayrog`i namunasi – to`q kulrang to`griburchakli matodir, uning old va orqa tomonlari markazida geraldik belgi – diametri 98 sm bo`lgan aylana ichiga chizilgan IIVning emblemasi tasvirlangan. Geraldik belgi – IIVning emblemasi (o`ng

⁷³ https://ru.wikipedia.org/wiki/Министерство_внутренних_дел_Узбекистана

tomondagi suratda, tahr.) chetlari bronza rangda hoshiyalangan halqali to‘q kumush aylana ko‘rinishiga ega. Ichki chiziq markazida hayotiy kuchni ifodalovchi qizil rangli yo‘l-yo‘l chiziq tushirilgan. Halqali chiziqning tepa qismida idoraviy mansublikni ko‘rsatuvchi so‘zlar yozilgan, yozuvlar qat‘iyat, matonat va shon-sharafni ifodalovchi ikkita sakkiz qirrali yulduz bilan bir-biridan ajratilgan. Aylana o‘rtasida chetlari milliy ornament bilan bezatilgan, ichki va tashqi tahdidlardan himoyani ifodalovchi qalqon tasvirlangan. Uning markazida doira ichiga chizilgan o‘ngga aylanishni aks ettiruvchi oktogramma bo‘lib, u tartib, muvozanat va kamolotga yetishishni anglatadi. Qalqon ortida – tig‘i pastga qaratilgan va diagonal tarzda kesishgan ikki shamshir – kuch va himoyaning qadimiy ramzi joylashgan. Qalqon va shamshirlar ortida tilla rangda ishlangan, qanotlari yoyilgan, omad va baxt ramzi bo‘lgan Xumo qushi tasvirlangan⁷⁴.

3. Ichki ishlar organlari sohasidagi isloxotlar, kadrlar masalasi, aholi bilan ishlashda yangicha yondashuv

Bugungi kunda, mamlakatimizda Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev rahbarligida “Yangi O‘zbekiston”ni barpo etishdek buyuk maqsad sari keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. O‘tkazilayotgan barcha islohotlarning zamirida yurtimizni har tomonlama rivojlantirib, jahonning rivojlangan davlatlari qatoriga olib chiqish, xalqimizning erkin va farovon hayotini ta‘minlash, huquq va manfaatlarini ishonchli himoya qilish, ularni rozi qilish yotadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-apreldagi “Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta‘minlashda ularning mas‘uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni⁷⁵ da belgilangan ustuvor vazifalarni hayotga tatbiq etish bo‘yicha bugungi kunga kelib 90 dan ziyod normativ-huquqiy, 200 ga yaqin idoraviy hujjatlar qabul qilindi. Ularning qabul qilinishi natijasida ichki ishlar organlarining tashkiliy tuzilmasi, tezkor-xizmat faoliyati va xodimlar oldiga qo‘yilgan talablar mutlaqo yangicha tus olib, aholiga yaqindan xizmat ko‘rsatish ta‘minlandi.

⁷⁴ https://uz.wikipedia.org/wiki/O'zbekiston_Respublikasi_Ichki_ishlar_vazirligi

⁷⁵ “Ички ишлар органларининг фаолияти самарадорлигини тубдан ошириш, жамоат тартибини, фуқаролар ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини ишончли ҳимоя қилишни таъминлашда уларнинг масъулиятини кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида” ПФ-5005-сон Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони / <https://lex.uz/docs/3159827>

Xususan, quyi tizimda tuman (shahar) ichki ishlar bo`limlarining shaxsiy tarkib soni oshirildi, olisda joylashgan aholi punktlarida qo`shimcha IIO bo`linmalari, tayanch punktlari tashkil etildi. Islohotlar natijasida, bevosita mahallalarda kriminogen vaziyatni ijobiy tomonga o`zgartirishga ta`sir ko`rsata oladigan ichki ishlar organlari tizimi shakllandi.

Ichki ishlar organlarining har bir sohasida samarali faoliyat olib borishga qaratilgan o`zgarishlar qilindi, ularning vazifalari aniq belgilab, xodimlarning shaxsiy javobgarligi oshirildi. Shu bilan bir qatorda xodimlarga qulay ish sharoitlari yaratildi, ularni ijtimoiy qo`llab-quvvatlash bo`yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Jumladan, IIB HPB IIO TP profilaktika inspektorlariga qulay sharoit yaratib berish maqsadida ularning har biriga uzoq muddatli kredit asosida “Matiz” avtomashinalari berildi hamda xizmat hududlaridan, har tomonlama qulay, 2 sotixli zamonaviy loyihalar asosidaxizmat uylari qurilib, foydalanishga topshirildi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevral` kunidagi “Jamiyatda ijtimoiy-ma`naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo`llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to`g`risida”gi Farmoni⁷⁶ talablari asosida Respublikamizdagi mavjud mahalla fuqarolar yig'inlari uchun bir nafardan profilaktika (katta) inspektorlari lavozimlari joriy qilindi. Hozirda har bir mahallada bir nafardan profilaktika inspektorlari mahalla raislarining huquqbuzarliklar masalalari bo`yicha o`rinbosari sifatida ish olib bormoqda. Mahalla fuqarolar yig'inlari va profilaktika inspektorlari o`rtasida o`zaro hamkorlik yanada kuchaydi.

Mahallalarda jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta`minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish ishlarini kuchaytirish maqsadida ichki ishlar organlarining quyi bo`g'inlari mustahkamlandi. Xususan, vazirlik va hududiy boshqarmalarini mavjud shtat birliklarining 85 foizi qisqartirilib, quyi tizim ichki ishlar bo`limlariga qayta taqsimlandi. 30 tuman-shaharda hududiy ichki ishlar organlarining 160 ichki ishlar bo`lim (bo`linma)lari tashkil etildi.

Eng muhimi, ichki ishlar organlari o`z xizmat faoliyatini parlament va jamoatchilik nazorati ostida olib borishi qat`iyan belgilandi. Ya`ni,

⁷⁶ “Жамиятда ижтимоий-маънавий муҳитни соғломлаштириш, маҳалла институтини янада қўллаб-қувватлаш ҳамда оила ва хотин-қизлар билан ишлаш тизимини янги даражага олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида” ПФ-5938-сон Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони / <https://lex.uz/docs/4740345>

Ichki ishlar vaziri Senatga yilda ikki marotaba axborot berishi, hududiy ichki ishlar organlari boshliqlari Xalq deputatlarining viloyat, tuman va shahar kengashlariga har chorakda, tuman-shahar IIB boshliqlarining yoshlar bo'yicha o'rinbosarlari xalq deputatlari shahar-tuman kengashlariga, profilaktika inspektorlari esa mahalla aholisiga har oyda hisobot berib borishi yo'lga qo'yildi.

Aholining barcha qatlami bilan manzilli ish olib borish maqsadida murojaatlar bilan ishlash bo'yicha 256 inspektor, xotin-qizlar masalalari bo'yicha 364 katta inspektor lavozimi joriy etildi. Joylardagi ichki ishlar organlarida 89 shtat birligidan iborat psixologik ta'minlash guruhlari tashkil etildi⁷⁷.

Mahallalarda fuqarolarning muammolarini joyida hal etish, ularga yanada yaqinlashish maqsadida hududiy ichki ishlar organlariga mahalliy byudjet hisobidan Huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatlarining hududiy bo'linmalariga qo'shimcha 459 profilaktika (katta) inspektori lavozimlari joriy etildi.

Fuqarolar yig'inlarida huquq-tartibot ishlarini samarali tashkil etish va ularning qamrovini kengaytirish maqsadida ichki ishlar organlari tarkibiga qo'shimcha jami 2 ming 570 profilaktika (katta) inspektori shtat birliklari ajratildi.

Hududlarning o'ziga xos tajribalari sifatida Toshkent shahrida "Xavfsiz poytaxt", Andijon viloyatida "Namunali hudud", Buxoro viloyatida "Xotin-qizlar bilan ishlash", Farg'ona viloyatida "Yoshlar bilan ishlash", Bo'ka tumanida "Prezidentning beshta tashabbusi", Jizzax viloyatida "Jinoyatga qarshi kurashish haqiqati va adolati", Sirdaryo viloyatida "Jinoyatdan holi mahalla" kontseptsiyalari hayotga tatbiq etildi⁷⁸.

Tizimda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari joriy etilib, "Xavfsiz shahar", "Xavfsiz poytaxt", "Xavfsiz hudud", "Xavfsiz turizmni ta'minlash", "Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash", "Xavfsiz xonadon" kontseptsiyalari amalga oshirilmoqda⁷⁹.

Koronavirus pandemiyasi davrida kiritilgan karantin cheklovlari ayrim oilalarning iqtisodiy va ijtimoiy ahvoli birmuncha qiyinlashishiga sabab bo'ldi. Afsus bilan aytish joizki, deyarli har kuni oila-turmush bilan bog'liq jinoyatlar sodir etilmoqda. Xususan, joriy yilning o'tgan davrida qotilliklarning har uchinchi, og'ir tan jarohati yetkazish

⁷⁷<https://yuz.uz/news/ichki-ishlar-organlarini-xalq-manfaatlariga-xizmat-qiladigan-ijtimoiy-tuzilmaga-aylantiriladi>

⁷⁸<https://yuz.uz/news/ichki-ishlar-organlarini-xalq-manfaatlariga-xizmat-qiladigan-ijtimoiy-tuzilmaga-aylantiriladi>

⁷⁹<https://yuz.uz/news/ichki-ishlar-organlarini-xalq-manfaatlariga-xizmat-qiladigan-ijtimoiy-tuzilmaga-aylantiriladi>

jinoyatlarining har beshinchisi oila-turmush munosabatlari doirasida yuz bergan.

Umuman olganda, bugungi kunda 12 mingdan ortiq oilada huquqbuzarlik keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan turli oila-turmush munosabatlari doirasidagi muammolar mavjud bo'lib, shundan 4 ming 809 tasi notinch oila hisoblanadi⁸⁰.

Bu masalaga jiddiy e'tibor qaratishimiz, sektor rahbarlari mahalla raislarining oila, xotin-qizlar va ijtimoiy-ma'naviy masalalar bo'yicha o'rinbosarlari va profilaktika inspektorlari bilan birgalikda nizoli oilalarda oilaviy qadriyatlarni tiklash, mavjud nizolarni qonuniy hal etish, ehtiyojmand oilalarni qo'llab- quvvatlash bo'yicha "mahallabay" tarzida ishlarni tashkil etishimiz lozim.

Prezidentimizning bevosita tashabbusi bilan eng quyi bo'g'in hisoblangan mahallada xavfsiz muhit yaratish bo'yicha ishlash uslubi tubdan o'zgardi. "Obod va xavfsiz mahalla" tamoyili asosida huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati qayta ko'rib chiqildi. Ilgari qariyb 20 foiz mahallada profilaktika inspektori yetishmasdi, bir nafar profilaktika inspektori 2-3 mahallaga xizmat qilar va ko'p hollarda ularga ortiqcha vazifalar yuklatilar edi.

Endilikda har bir mahallada profilaktika inspektori lavozimi joriy etildi. Fuqarolar yig'ini raisining huquq-tartibot masalalari bo'yicha o'rinbosari vazifasini bajarish ham profilaktika inspektoriga yuklatildi. Profilaktika inspektori mahalla raisi bilan kamida 5 yil mobaynida birga ishlashi belgilab qo'yildi.

Mahallalarda jinoyatchilikni jilovlash borasidagi ishlarni xolisona baholash maqsadida Bosh prokuratura bilan birgalikda "mahalla jinoyat"lari alohida toifaga ajratib olindi. Har oyda mahallaning o'zida sodir etilgan jinoyatlarning chuqur tahlili orqali ular uch toifaga, ya'ni "jinoyatlar oshgan", "jinoyatlar kamayishiga erishilmagan" va "jinoyatlar sodir etilmagan" mahallalarga ajratilmoqda va shu asosda kuch-vositalar taqsimlanmoqda.

O'rganish natijalari shuni ko'rsatdiki, aksariyat jinoyatlar viloyatlarning 8-10 mahallasi hissasiga to'g'ri kelgan. Shu bois kriminogen jihatdan nisbatan og'ir mahallalarda Milliy gvardiya bilan uzviy hamkorlik yo'lga qo'yildi. Jinoyatlar muntazam sodir etib kelinayotgan mahallalar tanlab olinib, ularda qo'shimcha patrullik yo'nalishlari tashkil etildi.

⁸⁰ <https://yuz.uz/news/ichki-ishlar-organlarini-xalq-manfaatlariga-xizmat-qiladigan-ijtimoiy-tuzilmagaaylantiriladi>

Natijada joriy yilning o'tgan davrida jami mahallalarning 66 foizida yoki 9 ming 145 mahalladan 6 ming 61 tasida bironta ham jinoyat sodir etilmadi⁸¹.

Har bir mahallani jinoyatdan holi hududga aylantirish maqsadida Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi hamda Milliy gvardiya bilan hamkorlikdagi ishlar ham tizimli ravishda davom ettirilmoqda.

Joriy yilda mamlakatimizda kuzatilgan tabiiy va texnogen ofatlar davomida kelib chiqqan talafotlar oqibatlarini bartaraf etishga ham mahalliy ichki ishlar organlari xodimlaridan tashqari, boshqa hududlardan ham Sirdaryo viloyatiga 437 nafar va Buxoro viloyatiga 182 nafar xodimlarimiz jalb qilindi. Ular xalqimiz mushkulini oson qilish maqsadida bir necha oylab, doimiy yashash manzillaridan va o'z oilalaridan yiroqda kechayu-kunduz tinimsiz xizmat qildi⁸².

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2021-yil 26-martda "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora tadbirlari to'g'risida" gi farmon imzolandi. Ichki ishlar organlari tayanch punktlari negizida mahalla huquq tartibot maskanlari tashkil etiladi. Ushbu maskanlarda faoliyat ko'rsatadigan boshqa sohaviy xizmatlar va milliy gvardiya hodimlarining o'zaro hamkorligini profilaktika inspektorlari muvofiqlashtiradi. Profilaktika inspektorlariga masofadan turib murojat yuborish va uni ko'rib chiqish jarayonini kuzatib boorish aholi bilan o'zaro tezkor muloqotni yo'lga qo'yish, profilaktika inspektorlari va sektor rahbarlari faoliyatini baholash imkonini beruvchi "Smart mahalla" axborot dasturi ishlab chiqilib 2021-yil 1-iyunga qadar Toshkent va Samarqand viloyatlarida joriy yil yakunigacha esa respublikaning boshqa viloyatlarida ham joriy etiladi⁸³.

Bugungi kunda ichki ishlar organlari bir qator mutassaddi tashkilotlar bilan hamkorlik ishlarini olib bormoqda. Takidlash joizki, yurtimizda bugunga kunda ichki ishlar organlari tubdan isloh qilinmoqda. Prezidentimiz tashabbuslari bilan bevosita aholi o'rtasida faoliyat olib boradigan profilaktika inspektorlari o'z hududlarida xizmat uylari bilan ta'minlandi. Yana bir quvonchli xabar shundaki har bir profilaktika inspektorlariga imtiyozli kredit asosida yengil avto mashina ajratildi. Jinoyat va huquqbuzarlik holatlari qizg'in muhokama qilingan hududlarda jinoyatlar keskin kamaygan. Masalan, 2018-yilda

⁸¹ <https://yuz.uz/news/ichki-ishlar-organlarini-xalq-manfaatlariga-xizmat-qiladigan-ijtimoiy-tuzilmaga-aylantiriladi>

⁸² <https://yuz.uz/news/ichki-ishlar-organlarini-xalq-manfaatlariga-xizmat-qiladigan-ijtimoiy-tuzilmaga-aylantiriladi>

⁸³ O'zbekiston ovozi. 2021-yil 21-aprel, chorshanba. – №16 (32.658). 4-varoq.

respublikamizda 2301 ta mahallada jinoyat qayd etilmagan bo'lsa, 2019-yilda bu ko'rsatkich 3074 taga yetdi.

Bugungi kun texnologiyalar zamoni hisoblanadi. Yurtimizda ichki ishlar organlari hodimlarini zamonaviy kompyuter texnologiyalari, avto-transport vositalari, qurol-yarog' va boshqa zamonaviy uskunalar bilan ta'minlashga katta e'tibor berilmoqda. Xususan, 2019-yil iyun oyida Ichki ishlar vazirligi tomonidan tergov-tezkor guruhlar uchun zarur asbob-uskunalar, xususan, kompyuter texnikasi, aloqa vositalari, uchuvchisiz uchadigan apparatlar (dron) va boshqa texnikalar bilan jihozlangan 16 ta maxsus transport vositalari ajratildi. Mahsus transport vositalari Qoraqalpog'iston Respublikasi ichki ishlar vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar Ichki ishlar xavfsizlikni ta'minlash bosh boshqarmasiga topshirildi⁸⁴.

Bugungi kunda hukumatimiz tomonidan ichki ishlar organlari xodimlarini qo'llab-quvvatlash masalasida bir qator imkoniyatlar, imtiyozlar berildi va berilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrdagi "Ichki ishlar organlari kadrlari bilan ishlash va ularning xizmatini tashkil etish tartibini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3413-son Qarori⁸⁵ bilan quyidagi imtiyozlar joriy etildi:

Xodimlarni ijtimoiy himoya qilish quyidagilar orqali ta'minlanadi:

- sog'lig'ini saqlash;
- mehnatiga haq to'lash;
- uy-joy maydoni bilan ta'minlash;
- mol-mulkiga yetkazilgan zararining o'rnini qoplash;
- xizmat majburiyatlarini bajarish chog'ida transport vositalaridan imtiyozli foydalanish;
- davlat pensiya ta'minoti;
- davlat sug'urtasi;
- ijtimoiy yordam ko'rsatish;
- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa chora-tadbirlar.

Shuningdek, xodimlar belgilangan namunadagi bepul kiyim-kechak bilan ta'minlanadilar⁸⁶.

Xodimlar, ichki ishlar organlaring pensionerlari hamda ularning oila a'zolari, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ta'lim

⁸⁴ Халқ сўзи. 2019 йил, 6-июль. 3-вароқ.

⁸⁵ "Ichki ishlar organlari kadrlari bilan ishlash va ularning xizmatini tashkil etish tartibini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3413-son Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори / <https://lex.uz/docs/3430641>

⁸⁶ <https://iiv.uz/uz/news/xodimlarni-ijtimoiy-himoya-qilish-uchun-beriladigan-imtiyoz-turlari>

muassasalari kursant (tinglovchi)lari ambulator, statsionar va tibbiy-sanitariya sharoitida bepul tibbiy xizmat olish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tibbiy- davolash muassasalariga birlashtiriladi, ularda qonun hujjatlarda belgilangan tartibda davolanadi va sog'lomlashtirishdan o'tkaziladi.

Xodimlar va ichki ishlar organlarning pensionerlari sanatoriy-kurort sharoitida davolanish uchun yilida bir marta imtiyozli yo'llanmalar bilan ta'minlanadi.

Xodimlar O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligi tomonidan belgilangan tartibda yilda bir marta majburiy chuqurlashtirilgan profilaktik tibbiy ko'rikdan o'tadilar. O'qotar qurol bilan xizmat olib boradigan xodimlar profilaktik tibbiy ko'rikdan har olti oyda o'tkaziladi.

Xodimlarning farzandlari yashayotgan joydagi maktabgacha ta'lim tashkilotlariga, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tizimidagi yozgi sog'lomlashtirish oromgohlariga navbatsiz va imtiyozli ravishda joylashtiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kenesi, mahalliy davlat hokimiyati organlari xodimlarga, shuningdek, ichki ishlar organlaridan bo'shatilgan fuqarolarga hamda ularning oila a'zolariga ushbu Nizomda nazarda tutilmagan boshqa imtiyoz, kafolat va kompensatsiyalar ham belgilashi mumkin⁸⁷.

Shuningdek, Ichki ishlar organlari xodimlari farzandlarining oliy ta'lim muassasalari hamda Mudofaa vazirligi, IIV, Milliy gvardiya va Davlat bojxona qo'mitasining ta'lim muassasalariga o'qishga kirishi uchun tavsiyanoma (taqdimnoma) berish tizimi shakllantirildi.

Bugungi kunda ichki ishlar organlari xodimlari zamon talablariga mos keladigan – yetarli bilimga, jismoniy tayyorgarlikka ega, aqlan va ma'nan etuk kadrlar bo'lishi lozim.

Hozirgi kunda ichki ishlar organlarida xizmat qilayotgan xodimlarning 51,2 foizi oliy ma'lumotga ega bo'lib, shularning 14,9 foizi yuridik ma'lumotli mutaxassislardan iborat. Shaxsiy tarkibning 49,8 foizi o'rta-maxsus ma'lumotga ega bo'lsa, xodimlarning deyarli yarmini yoshlar tashkil etadi.

2017 – 2020-yillarda IIV oliy ta'lim muassasalariga 3 ming 21 nafar yoshlar o'qishga qabul qilindi. Bundan tashqari, vazirlik Akademiyasi kasbiy tayyorgarlik fakul'tetini 1 ming 482 nafar xodim (shundan 887

⁸⁷ <https://iiv.uz/uz/news/xodimlarni-ijtimoiy-himoya-qilish-uchun-beriladigan-imtiyoz-turlari>

nafar ofitser, 595 nafar serjant) bitirib, ichki ishlar organlarida turli lavozimlarga tayinlandi.

Vazirligimizning Rossiya Federatsiyasi Ichki ishlar vazirligi bilan o`zaro kelishuvi asosida tor doiradagi mutaxassislik bo`yicha 2017 – 2020-yillarda 80 nafarga yaqin yoshlar ushbu mamlakat IIV oliy ta`lim muassasalariga o`qishga yuborildi⁸⁸.

Yurtimizda bu borada qator ishlar amalga oshirildi. Ichki ishlar organlari tuzilmasi hamda kuch vositalarining taqsimlanishi qayta ko'rib chiqilib eng olis qishloqlarda ham aholiga xizmat ko'rsatish maqsadida 85% gacha shaxsiy tarkib quyi tizimga tushirildi. Buning uchun 314 ta yangi ichki ishlar bo'linmasi tashkil etildi. Tizimda kadrlar salohiyatini oshirish yangilikka intiluvchan va zamonaviy fikrlaydigan xodimlarni sohaga tayyorlash maqsadida “Temurbeklar maktabi” va ixtisoslashgan maktab internat hamda barcha hududlarda akademik litseylar ish boshladi. Qator xorij mamlakatlari bilan ilmiy tajriba almashilib 40 ga yaqin davlatlar ishtirokida muvofiqlashtiruvchi kengashlar tuzildi. Ikki tomonlama hamkorlik o'rnatildi⁸⁹.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 5-iyuldagi “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida”gi farmoni qabul qilinishi o'tgan yili mamlakatimiz hayotidagi muhim voqealardan bo'ldi. Farmon bandlaridan birida “Buyuk davlat arbobi va sarkarda Sohibqiron Amir Temurning Vatanga sadoqat, el-yurtni ardoqlash, mardlik, fidoyilik va adolatparvarlik kabi yuksak fazilatlari yosh avlod uchun o'rnak bo'lib xizmat qilishini inobatga olgan holda, respublikaning barcha harbiy akademik litseylariga “Temurbeklar maktabi” nomi berilsin”, deb belgilangan.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 22-maydagi “Harbiy akademik litseylar faoliyatini tashkil etishga doir chora-tadbirlar to'grisidagi qaroriga muvofiq, Toshkentda harbiy-telekommunikatsiya, Samarqandda harbiy- qurilish, Farg'onada harbiy-texnik, Urganchda harbiy-yuridik sohalarga ixtisoslashgan akademik litseylar tashkil etildi. Ushbu hujjatga muvofiq, litseylar yurtimizdagi oliy o'quv yurtlariga birlashtirildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 5-iyuldagi farmoniga muvofiq, barcha akademik litseylarga “Temurbeklar maktabi” nomi berildi va ular O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasiga topshirildi⁹⁰.

⁸⁸ <https://yuz.uz/news/ichki-ishlar-organlarini-xalq-manfaatlariga-xizmat-qiladigan-ijtimoiy-tuzilmagaaylantiriladi>

⁸⁹ Yangi O'zbekiston. 2021-yil 10-mart. 49-son. 4-varoq.

⁹⁰ <http://temurbeklar.zn.uz/temurbeklar-maktabi-tarixi/>

O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlariga asosiy kadrlarni tayyorlab beradigan ta'lim dargohi O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Akademiyasi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Akademiyasi Markaziy Osiyoda huquqni muhofaza qilish organlari uchun kadrlar tayyorlash bo'yicha eng yirik oliy ta'lim muassasalaridan biridir. Akademiyaning faoliyati Ustav asosida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasining tarixi 1932- yili tashkil etilgan O'rta Osiy ishchi-dehqon militsiyasi katta boshliqlar tarkibi maktabiga borib taqaladi.

Ta'lim muassasasini yulga quyish uchun ikkita militsiya maktabi faoliyat yuritardi. Bular o'rta va katta militsiya komandirlari tarkibini tayyorlovchi Samarqand hamda Qo'qon maktablari edi. Ko'p o'tmay, Samarqanddagi maktab tugatilib, Qo'qon maktabi Toshkent shahriga ko'chirildi.

O'quv mashg'ulotlari uchun uch qavatli bino ajratildi. Maktab qoshida ishchi-dehqon militsiyasi shaxsiy tarkibini tayyorlash va qayta o'qitish kurslari, doimiy uch oylik kurslar hamda militsiya inspektorlari guruhlari tashkil etildi. Ikkinchi jahon urushi yillari maktabda o'qiyotganlar tarkibi asosan evakuatsiya qilingan xotin-qizlardan jamlandi. Ular ikkita vuzvoddan iborat xotin-qizlar divizionini tashkil qilgan.

Urushdan keyin maktabda yana ikki yillik ta'lim tizimi yo'lga qo'yilib, o'rta ma'lumotga ega bo'lganlar o'qishga qabul qilina boshlandi.

1947-yilda maktabda sirtqi bo'lim ochildi. 1949-yil sentyabr oyida maktab SSSR Davlat xavfsizligi vazirligi ixtiyoriga o'tkazildi va podpolkovnik I.Ismoilov unga boshliq etib tayinlandi⁹¹.

1950-yildan maktab ixtisosligi o'zgardi va bu erda sotsialistik mulkni talon-toraj qilishga qarshi kurashish xodimlari tayyorlana boshlandi.

1952-yilda o'quv dargohi sobiq Ittifoq Davlat xavfsizligi vazirligining O'rta maxsus militsiya maktabi maqomini oldi. Chunki o'sha yillari militsiya tizimini yuridik (huquqiy) ma'lumotga ega bo'lgan xodimlar bilan ta'minlash zarurati paydo bo'lgan edi. Maktabga o'rta ma'lumotlilar qabul qilina boshlandi va 1954- yilda ilk bitiruvchilarga yurist (huquqshunos) diplomi berildi.

⁹¹ <https://akadmvd.uz/uz/menu/istorija-akademii>

Keyinchalik maktabda militsiyaning barcha xizmatlari uchun oddiy va boshliqlar tarkibini boshlang'ich tayyorlash va qayta o`qitish kurslari muntazam ish olib bordi. O`quv jarayonida ham bir qator yangiliklar joriy etildi. Maktabning moddiy bazasi kuchaytirildi. Adabiyotlar fondi boyitildi, xonalar tegishli ko`rgazmali qurollar bilan jihozlandi. Mashg'ulotlarda ma`ruza bilan birga, amaliy mashg'ulotlarga ham katta e`tibor qaratildi.

1958-yilda maktab qoshida RSFSR Jamoat tartibini saqlash vazirligi Moskva oliy maktabi sirtqi ta`lim fakultetining bo`linmasi tashkil qilindi. Chunki o`sha yillari nafaqat O`zbekiston, balki qo`shni respublikalarda ham militsiya xodimlariga talab oshdi. 1961-yili sirtqi bo`limni 48 nafar bitiruvchi tamomladi.

Oradan uch yil o`tib bo`linma Toshkent sirtqi ta`lim fakultetiga aylantirildi. Fakul`tetda uchta kafedra (maxsus, yuridik va ijtimoiy fanlar), shuningdek rus va chet tillari seksiyasi tashkil etildi.

1964-yilning sentyabr oyida fakultet qoshida kechki bo`lim ochildi. Biroq sobiq Ittifoq respublikalarida kadrlarga ehtiyoj hamon yuqori darajada edi⁹².

Shu sababli 1967-yilda sobiq Ittifoq Jamoat tartibini saqlash vazirligining

Toshkent oliy militsiya maktabi tashkil etildi. O`quv dargohiga general-mayor Tojiddin Azimovich Jalilov boshliq etib tayinlandi. Ilk o`quv yilida unga 85 kishi qabul qilindi. O`qish muddati to`rt yil etib belgilandi.

Oradan bir yil o`tib, Dushanbe va Ashxobod shaharlarida maktabning o`quv- maslahat punktlari faoliyat ko`rsata boshladi. Asosiy e`tibor kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, ichki ishlar organlari xodimlarining jinoyatchilikka qarshi kurashish va uning oldini olish borasidagi kasb mahoratini yuksaltirishga qaratildi. Oliy maktabning moddiy-texnik bazasi yanada yaxshilandi, yangi bino va inshootlar barpo etildi.

Toshkent viloyatida harbiy-dala o`quv poligoni barpo etish uchun joy ajratilib, qurilish ishlari boshlab yuborildi. Ko`p o`tmay, bir nechta binolar, yotoqxona, oshxona, saf maydoni, klub, sport majmui va boshqa ob`ektlar qurilib, foydalanishga topshirildi.

1971-yilda kunduzgi ta`limning 32 nafar ilk bitiruvchilari Oliy maktabni muvaffaqiyatli tamomladi. Yangi o`quv yilida maktabga qabul qilinuvchilar soni ikki baravar ko`paytirildi. Malaka oshirish kurslari

⁹² <https://akadmvd.uz/uz/menu/istorija-akademii>

esa fakul'tetga aylantirildi. Unda har yili 200 nafarga yaqin xodim ta'lim oldi.

1979-yili ta'lim muassasasi boshlig'i Tojiddin Jalilov tashabbusi bilan maktabda Malaka oshirish fakul'teti tashkil etildi. Fakul'tetning maqsadi ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy malaka va ko'nikmalarini oshirish hamda ularni qayta tayyorlash edi. Bu davrda maktab hududida o'quv binolari va insho- otlari barpo etildi⁹³.

80-yillar o'rtalariga kelib maktabda kunduzgi va sirtqi ta'lim hamda malaka oshirish fakul'tetlari, dariy (forsiy) tili tarjimonlarini tayyorlash maxsus fakul'teti, yong'inga qarshi texnika va xavfsizlik muhandislari fakul'teti faoliyat ko'rsata boshladi. Keyinchalik yong'inga qarshi texnika va xavfsizlik muhandislari fakulteti maktab tarkibidan chiqarildi.

General-mayor Nikolay Ivanovich Ojiganov 1984-yildan 1992-yilgacha Toshkent Oliy militsiya maktabiga rahbarlik qildi. Ushbu yillarda ichki ishlar organlari uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratildi hamda o'quv jarayonini moddiy-texnik va metodik jihatdan ta'minlash ishlari har tomonlama mustahkamlandi.

N.Ojiganov rahbarligida 1984-yili sirtqi ta'lim fakul'teti tinglovchilari uchun yangi o'quv binosi hamda mehmonxona qurilishi boshlanib, bir yildan so'ng mazkur inshoot foydalanishga topshirildi. Uning tashabbusi bilan 1988-yilda havo transportida garovga olingan yo'lovchilarni ozod qilish bo'yicha aksilterror o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish maqsadida V.P.Chkalov nomidagi Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasidan YAK-40 rusumli samolyotning asl maketi olib kelinib, O'quv poligoniga o'rnatildi⁹⁴.

Ta'kidlash joizki, 1989-yil 21-oktyabrda o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi munosabati bilan 1989 – 1990-o'quv yilidan boshlab IIV Toshkent oliy maktabi tinglovchilari uchun o'zbek tilida ta'lim beriladigan o'quv guruhlari tashkil etildi. O'zbek tili o'qituvchilariga ehtiyoj borligi uchun tillar kafedrasining shtatlari ko'paytirildi. Ayni shu davrdan oliy maktab tarixida ilk bor o'zbek tilidagi o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar (darslik, o'quv qo'llanma, lug'atlar, uslubiy qo'llanmalar va boshq.) nashr etila boshlandi.

XX asrning 80-yillarida oliy maktabning Maxsus fakultet bazasida Afg'oniston Ichki ishlar vazirligi uchun maslahatchilar hamda tarjimon

⁹³ <https://akadmvd.uz/uz/menu/istorija-akademii>

⁹⁴ <https://akadmvd.uz/uz/menu/istorija-akademii>

kadrlar tayyorlash bo'yicha ham faol ishlar olib borildi. 1988-yildan mustaqillikka qadar oliy maktabning 100 dan ortiq tinglovchilari Rossiya, Ukraina, Belarus" va boshqa respublikalarning Ichki ishlar vazirligi tasarrufidagi oliy ta'lim muassasalariga o'qishga yuborildi. Shu bilan birga, oliy maktabning o'zida sobiq Ittifoqdagi turdosh ta'lim muassasalaridan tinglovchilar o'qitildi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritganidan keyin ko'p sohalar qatori ichki ishlar organlari uchun kadrlar tayyorlash tizimi tubdan o'zgardi. 1992- yil yanvar" oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Far- moniga ko'ra, Toshkent oliy militsiya maktabi O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tasarrufiga o'tkazildi. Ta'lim muassasasi O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Oliy maktabi maqomini oldi. 1992-yil 1-avgustda unga polkovnik Ubaydulla Tadjixanov boshliq etib tayinlandi. O'sha yillari maktabda 14 ta kafedra faoliyat yuritir, o'quv binolari va mashg'ulot xonalari ta'mirga muhtoj edi. O'quv yurti rahbariyati va professor-o'qituvchilari tarkibi zimmasiga ta'lim tizimini takomillashtirish, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalarini o'rganib ta'lim jarayoniga tatbiq etish, maktabning moddiy-texnik bazasini yanada yaxshilash vazifalari yuklatildi. Ana shu maqsadda keng ko'lamli bunyodkorlik ishlari boshlab yuborildi. Maktab hududi obodonlashtirilib, ko'rkam inshootlar barpo etildi, mavjudlari ta'mirlandi 90-yillar boshida, mustaqillikka erishilishi munosabati bilan Ichki ishlar vazirligi ta'lim muassasalarida izchil islohotlar amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 2- sentabrdagi 447-sonli qarori va O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligining 1994-yil 20-oktyabrdagi 264-sonli buyrug'i asosida qayta tashkil etilgan bo'lib, Ichki ishlar vazirligi tizimiga kiradi⁹⁵. Akademiya oliy ta'limning asosiy va qo'shimcha kasbiy o'quv dasturlari asosida ta'lim faoliyatini, shuningdek O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, o'quv-metodik, ilmiy va boshqa faoliyatlarni amalga oshiruvchi ixtisoslashgan davlat oliy ta'lim muassasasi hisoblanadi⁹⁶. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan Akademiyaning tashkiliy shtat tuzilishi tasdiqlangan bo'lib, unga muvofiq ta'lim muassasasi o'z faoliyatini quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiradi:

⁹⁵ <https://akadmvd.uz/uz/menu/istorija-akademii>

⁹⁶ O'zbekiston ovozi. 2021-yil 12-may, chorshanba. – №18 (32.660). 4-varoq.

– jamoat tartibini saqlash, jinoyatlarning oldini olish, ularni ochish va tergov qilish, jinoyatchilarni qidirish va aholining xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ichki ishlar organlari bo'linmalari faoliyatini samarali tashkil qila oladigan rahbar kadrlarni tayyorlash;

– jinoyatchilikka qarshi kurashda profilaktik, operativ, jinoyat-protsessual, ekspert va boshqa tadbirlarni mustaqil o'tkazish qobiliyatiga ega bo'lgan ichki ishlar organlari ofitserlari – mutaxassislarni tayyorlash;

– ichki ishlar organlari uchun o'zida mutaxassis va komandir xususiyatlari hamda ixtisosligini uyg'unlashtirgan, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika, jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tadbirlarni hayotga samarali tatbiq eta oladigan serjantlar tarkibini tayyorlash;

– IIV xodimlarining uzluksiz ta'limi tizimida ichki ishlar organlari ofitserlari tarkibining malakasini oshirish va qayta tayyorlash;

– jinoyatchilikka qarshi kurash va jamoat xavfsizligini ta'minlash borasidagi dolzarb muammolarga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil qilish, ilmiy-

pedagogik kadrlarning kasbiy va metodik darajasini oshirish.

Akademiya tarkibida 23 ta kafedra mavjud: ma'muriy huquq, tezkor qidiruv huquqi, kriminalistika, jinoyatlarning oldini olish, ichki ishlar idoralarida boshqaruvni tashkil etish, transportda xavfsizlikni tashkil etish, jinoyat huquqi, davlat va huquq tarixi va nazariyasi, konstitutsiyaviy huquq, inson huquqlari umumiy nazariyasi va amaliyoti, fuqaroviy-huquqiy fanlar, umumharbiy fanlar, jismoniy tayyorgarlik, psixologiya va kasb etikasi, informatika, hisoblash texnikasi va aloqa, tibbiy tayyorgarlik, O'zbekiston tarixi, O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti, falsafa va siyosatshunoslik, iqtisodiy fanlar, malaka oshirish fakultetining maxsus fanlar va yuridik fanlar kafedralari, tillar va adabiyot kafedrasi. Shuningdek, Serjantlar tarkibini tayyorlash bo'yicha oliy kurslarda 4 ta sikl: maxsus fanlar, yuridik fanlar, harbiy-xizmat va jismoniy tayyorgarlik hamda gumanitar va ijtimoiy-huquqiy fanlar sikllari mavjud⁹⁷.

Akademiyada o'quv-tarbiya jarayoni va xizmat olib borishni o'quv bo'limi, tarbiyaviy ishlar bo'limi, ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash bo'limi, saf qismi va shtab tashkil qiladi. Ilmiy tadqiqot ishlarini Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashdagi dolzarb masalalar loyihasi tashkil qiladi va muvofiqlashtiradi. Moliyaviy-

⁹⁷ https://uz.wikipedia.org/wiki/O'zbekiston_Respublikasi_Ichki_ishlar_vazirligi_akademiyasi#Tarixi

iqtisodiy va moddiy-texnik ta'minotni tegishli bo'lim va xizmatlar amalga oshiradi.

Davlatimiz rahbarining yaqinda imzolangan "Ichki ishlar organlari uchun professional kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo'yicha chora tadbirlar to'grisida" gi qarori ayni maqsad yo'lidagi faoliyatimizni tubdan takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur qaror asosida amaliyotga to'la javob beradigan bakalavryat va magistraturani o'z ichiga oluvchi ikki bosqichli oliy ta'lim tizimi joriy etiladi. Qarorda nazarda tutilgan yana bir yangilik bu Ichki ishlar vazirligi akademiyasining Qoraqolpog'izton Respublikasidagi Nukus filiali faoliyati yo'lga qoyilgani. Akademiyada magistratura dasturi bo'yicha o'qitish ichki ishlar organlarining rahbar kadrlarini tayyorlashga yonaltiriladi⁹⁸.

O'zbekiston Ichki ishlar organlari o'zining muzeyiga ham ega. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga muvofiq 2018-yilning avgust oyida, O'zbekiston Respublikasining mustaqilligining 27 yilligi munosabati bilan Toshkent shahrida "Ichki ishlar organlari tarixi muzeyi" o'z faoliyatini boshladi⁹⁹.

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 21-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi "Ichki ishlar organlari tarixi muzeyi"ning yangi ekspozitsiyasini shakllantirish va muzey faoliyatini yo'lga qo'yish chora-tadbirlari to'grisida"gi majlis bayonida belgilab berilgan vazifalar, bu boradagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqdi va qisqa fursatlarda ushbu muzey zamon talablariga mos tarzda tashkil etildi.

Ma'lumot uchun, ichki ishlar organlari tarixi muzeyi dastlab 1974-yilda tashkil etilgan bo'lib, vazirlik hududida rekonstruktsiya qilingan binoga ko'chirilishi uning faoliyatiga yangi yo'nalish berdi¹⁰⁰.

Muzey to'rta bo'limdan iborat bo'lib, "O'zbekiston hududida xavfsizlik va ichki tartibni saqlovchi tuzilmalarning shakllanishi", "Mustaqillik yillarida O'zbekistonda ichki ishlar organlari tizimidagi islohotlar", Vazirlik sohaviy xizmatlari faoliyati va "Ichki ishlar organlari tizimida kadrlar tayyorlash, xodimlarning kasbiy va jangovar tayyorgarligi hamda ularning ijtimoiy muhofazasi" kabi yo'nalishlarni qamrab olgan¹⁰¹.

⁹⁸ https://uz.wikipedia.org/wiki/O'zbekiston_Respublikasi_Ichki_ishlar_vazirligi_akademiyasi#Tarixi

⁹⁹ Yangi O'zbekiston. 2021-yil 27-aprel. 83-son. 4-varoq.

¹⁰⁰ <https://uznews.uz/uz/article/11749/>

¹⁰¹ Yangi O'zbekiston. 2021-yil 8-may. 93-son.6-varoq.

Muzey keng jamoatchilik uchun ochiq bo`lib dushanbadan jumagacha o`z faoliyatini olib boradi. Muzeysga tashrif buyuruvchilar oldindan ro`yxatni taqdim etishlari lozim. Bunga muzeyning Ichki ishlar vazirligi hududida joylashganligi sabab ekani aytilgan. Muзей ichki ishlar organlari xodimlarining mashaqqatli faoliyatini mamlakatimiz aholisiga ko`rsatish, ularni xizmat faoliyati bilan yaqindan tanishtirishni maqsad qilgan.

Ichki ishlar xodimlarining mamlakatimiz tinchligi va taraqqiyotida xizmatlari katta. Juda ko`p xolatlarda ularning o`zlarining xayotini xavf ostiga qo`yib bo`lsada, bizning tinchligimizni asramoqda. Xususan, 2019-yil davomida 229 nafar xodim turli darajadagi tan jarohatlari oldi, 28 nafar xodim bevosita o`z vazifasini ado etish va xizmat burchini bajarish chog`ida hayotdan ko`z yumdi.

2020-yilning 7 oyi davomida esa 12 nafar xodim xizmat burchini bajarish chog`ida vafot etdi, 171 nafar xodim turli darajadagi tan jarohatlari oldi¹⁰².

Mustaqillik yillarida jami 1 ming 744 nafar ichki ishlar organlari xodimlari “Mard o`g`lon”, “Jasorat”, “Sodiq xizmatlari uchun” medallari, “Mardlik”, I va II darajali “Shon-sharaf” ordenlari hamda boshqa ko`plab Davlat mukofotlari bilan taqdirlangani bejiz emas. Fidoyilik va mardlik namunalarini ko`rsatgani uchun 2019-yil davomida 4 ming 359 nafar, joriy yilning olti oyi mobaynida esa 4 ming 210 nafar ichki ishlar organlari xodimlari Ichki ishlar vazirligining idoraviy mukofotlari bilan rag`batlantirildi¹⁰³.

¹⁰² <https://www.gazeta.uz/uz/2018/08/30/muzey/>

¹⁰³ <https://yuz.uz/news/ichki-ishlar-organlarini-xalq-manfaatlariga-xizmat-qiladigan-ijtimoiy-tuzilmagaaylantiriladi>

XULOSA

Olib borilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

– O`zbekiston davlat mustaqilligini qo`lga kiritilishi natijasida ichki ishlar organlarining moddiy-texnik ahvolini yaxshilash, malakali milliy kadrlar tayyorlash tizimini joriy etishga qaratilgan dastlabki o`zgarishlar amalga oshirildi. Jumladan, 1991-yil 25-oktyabrda O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 270-sonli qarori asosida O`zbekiston SSR IIV – O`zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligiga aylantirildi. Qaror bilan vazirlik Nizomi va strukturasi tasdiqlandi. Keyinchalik ushbu sana mamlakatimizda ichki ishlar organlari xodimlari kuni sifatida belgilandi;

– qisqa davr ichida ichki ishlar organlarining shaxsiy tarkibi etarli malakaga ega bo`lgan kadrlar bilan jamlandi, xodimlarning kasbiy va jangovar mahoratini oshirishga alohida e`tibor qaratildi. Natijada mamlakatda jinoyatchilik sezilarli darajada kamayib, sodir etilgan jinoyatlarning qisqa fursatlarda ochilishiga erishildi. Bundan tashqari, 1994-yilda O`zbekistonning Interpolga a`zo bo`lishi respublika huquq-tartibot organlariga xorijiy davlatlarning huquqni muhofaza qiluvchi organlari bilan hamkorlik qilish, uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashda hamkor davlatlarning kuch va vositalaridan foydalanish imkonini berdi;

– 2016-yildan yurtimizdagi barsa sohalar kabi ichki ishlar sohasida ham yangi davr boshlandi. Mazkur davr – bevosita O`zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning tashabbuslari bilan O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo`yicha Harakatlar strategiyasi asosida tizimni tubdan takomillashtirish, ichki ishlar organlarini aholiga o`z vaqtida va sifatli yordam ko`rsatadigan, har bir xodim tomonidan “Xalq manfaatlariga xizmat qilish”ni o`z xizmat burchi deb biladigan ijtimoiy yo`naltirilgan professional tuzilmaga aylantirishga qaratilgan keng ko`lamli islohotlar davri bo`ldi;

– 2016-yilda mustaqil O`zbekistonning 25 yillik tarixida ilk bor “Ichki ishlar organlari to`g`risida”gi Qonun qabul qilinib, unda ichki ishlar organlarining asosiy vazifalari, faoliyatining yo`nalish va tamoyillari belgilab berildi. 2017-yilning 17- martida kuchga kirgan ushbu Qonun ichki ishlar organlari maqomi, faoliyatining shakl va usullarini har tomonlama tartibga solish barobarida, uni yangi bosqichga ko`tarishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir;

– o`tgan qisqa davr ichida ichki ishlar organlarining faoliyatini tubdan takomillashtirishga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirildi.

Ichki ishlar organlarini xalq manfaatlariga xizmat qiladigan ijtimoiy tuzilmaga aylantirish maqsadida mustahkam huquqiy baza yaratilgan. Jumladan, 6 qonun, Prezidentimizning 7 farmoni va 40 qarori, Vazirlar Mahkamasining 89 qarori hamda 160 dan ziyod idoraviy normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi;

– O`zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi, tartibga soluvchi va nazorat qiluvchi organ O`zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi hisoblanadi. O`zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi – O`zbekiston Respublikasi ijroiya hokimiyati organi hisoblanib, o`z vakolatlari doirasida fuqaro va inson erkinligi va huquqlarini himoyalashda davlat boshqaruvini amalga oshiradigan, huquq-tartibotni saqlash, jamoat xavfsizligini ta`minlash va bevosita O`zbekiston Respublikasi Ichki ishlar organlari va Ichki ishlar vazirligining ichki qo`shinlari faoliyatining asosiy yo`nalishlarini amalga oshiradi;

– O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevral” kunidagi “Jamiyatda ijtimoiy-ma`naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo`llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to`g`risida”gi Farmoni talablari asosida Respublikamizdagi mavjud mahalla fuqarolar yig'inlari uchun bir nafardan profilaktika (katta) inspektorlari lavozimlari joriy qilindi. Hozirda har bir mahallada bir nafardan profilaktika inspektorlari mahalla raislarining huquqbuzarliklar masalalari bo`yicha o`rinbosari sifatida ish olib bormoqda. Mahalla fuqarolar yig'inlari va profilaktika inspektorlari o`rtasida o`zaro hamkorlik yanada kuchaydi. Mahallalarda jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta`minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish ishlarini kuchaytirish maqsadida ichki ishlar organlarining quyi bo`g'inlari mustahkamlandi;

– eng muhimi, ichki ishlar organlari o`z xizmat faoliyatini parlament va jamoatchilik nazorati ostida olib borishi qat`iyan belgilandi. Ya`ni, Ichki ishlar vaziri Senatga yilda ikki marotaba axborot berishi, hududiy ichki ishlar organlari boshliqlari Xalq deputatlarining viloyat, tuman va shahar kengashlariga har chorakda, tuman-shahar IIB boshliqlarining yoshlar bo`yicha o`rinbosarlari xalq deputatlari shahar-tuman kengashlariga, profilaktika inspektorlari esa mahalla aholisiga har oyda hisobot berib borishi yo`lga qo`yildi;

– mahallalarda fuqarolarning muammolarini joyida hal etish, ularga yanada yaqinlashish maqsadida hududiy ichki ishlar organlariga mahalliy byudjet hisobidan Huquqbuzarliklar profilaktikasi

xizmatlarining hududiy bo`linmalariga qo`shimcha 459 profilaktika (katta) inspektori lavozimlari joriy etildi;

– fuqarolar yig'inlarida huquq-tartibot ishlarini samarali tashkil etish va ularning qamrovini kengaytirish maqsadida ichki ishlar organlari tarkibiga qo`shimcha jami 2 ming 570 profilaktika (katta) inspektori shtat birliklari ajratildi;

– hududlarning o`ziga xos tajribalari sifatida Toshkent shahrida “Xavfsiz poytaxt”, Andijon viloyatida “Namunali hudud”, Buxoro viloyatida “Xotin-qizlar bilan ishlash”, Farg'ona viloyatida “Yoshlar bilan ishlash”, Bo`ka tumanida “Prezidentning beshta tashabbusi”, Jizzax viloyatida “Jinoyatga qarshi kurashish haqiqati va adolati”, Sirdaryo viloyatida “Jinoyatdan holi mahalla” kontseptsiyalari hayotga tatbiq etildi;

– tizimda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari joriy etilib, “Xavfsiz shahar”, “Xavfsiz poytaxt”, “Xavfsiz hudud”, “Xavfsiz turizmni ta`minlash”, “Yo`l harakati xavfsizligini ta`minlash”, “Xavfsiz xonadon” kontseptsiyalari amalga oshirilmoqda;

– hozirgi kunda ichki ishlar organlarida xizmat qilayotgan xodimlarning 51,2 foizi oliy ma`lumotga ega bo`lib, shularning 14,9 foizi yuridik ma`lumotli mutaxassislardan iborat. Shaxsiy tarkibning 49,8 foizi o`rta-maxsus ma`lumotga ega bo`lsa, xodimlarning deyarli yarmini yoshlar tashkil etadi;

– O`zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlariga asosiy kadrlarni tayyorlab beradigan ta`lim dargohi O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Akademiyasi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Akademiyasi Markaziy Osiyoda huquqni muhofaza qilish organlari uchun kadrlar tayyorlash bo'yicha eng yirik oliy ta'lim muassasalaridan biridir;

– O`zbekiston Ichki ishlar organlari o`zining muzeyiga ham ega. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga muvofiq 2018-yilning avgust oyida, O`zbekiston Respublikasining mustaqilligining 27 yilligi munosabati bilan Toshkent shahrida “Ichki ishlar organlari tarixi muzeyi” o`z faoliyatini boshladi;

– Mustaqillik yillarida jami 1 ming 744 nafar ichki ishlar organlari xodimlari “Mard o`g'lon”, “Jasorat”, “Sodiq xizmatlari uchun” medallari, “Mardlik”, I va II darajali “Shon-sharaf” ordenlari hamda boshqa ko`plab Davlat mukofotlari bilan taqdirlangani bejiz emas. Fidoyilik va mardlik namunalarini ko`rsatgani uchun 2019-yil davomida 4 ming 359 nafar, joriy yilning olti oyi mobaynida esa 4 ming 210 nafar ichki ishlar organlari xodimlari Ichki ishlar vazirligining idoraviy mukofotlari bilan rag'batlantirildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

I. nazariy adabiyotlar:

1.1. Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқи. – Т.: Ўзбекистон, 2016.

1.2. Мирзиёев Ш. М. Илм-фан ютуқлари – тараққиётнинг муҳим омили // Халқ сўзи. – 2016. – 31 декабрь.

1.3. Мирзиёев Ш. М. Танқидий таҳлил, қаътий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг куналик қоидаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 104 б.

1.4. Мирзиёев Ш. М. Қонун устуворлиги – инсон манфаатларини таъминлаш юрт тараққиёти ва фаровонлигининг гарови. – Т.: Ўзбекистон, 2017.

1.5. Мирзиёев Ш. М. Буюк келажагимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан қурамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.

1.6. Мирзиёев Ш. М. Миллатлараро дўстлик ва ҳамжихатлик – халқимиз тинчлиги ва фаровонлигининг муҳим омилидир // Маърифат. – 2017. – 25 январь.

1.7. Мирзиёев Ш. М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – 507 б.

1.8. Мирзиёев Ш. М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2019. – 400 б.

1.9. Мирзиёев Ш. М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2020. – 400 б.

1.10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2017 – 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегияси” ПФ-4947-сонли фармони // Халқ сўзи. – 2017. – № 28.

1.11. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси / <https://president.uz/uz/lists/view/4057>

II. Normativ-huquqiy hujjatlar:

2.1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2018.

2.2. “Ички ишлар органлари тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси Қонуни. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси томонидан 2016 йил 12 августда қабул қилинган, Сенат томонидан 2016 йил 24 августда маъқулланган /<https://www.lex.uz/acts/3027843>

2.3. “Хотин-қизларни тазйиқ ва зўравонликдан ҳимоя қилиш тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси Қонуни. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси томонидан 2019 йил 17 августда қабул қилинган, Сенат томонидан 2019 йил 23 августда маъқулланган / <https://www.lex.uz/docs/4494709>

2.4. “Ichki ishlar organlari kadrlari bilan ishlash va ularning xizmatini tashkil etish tartibini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-3413-son Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори / <https://lex.uz/docs/3430641>

2.5. “Жамиятда ижтимоий-маънавий муҳитни соғломлаштириш, маҳалла институтини янада қўллаб-қувватлаш ҳамда оила ва хотин-қизлар билан ишлаш тизимини янги даражага олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида” ПФ-5938-сон Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони / <https://lex.uz/docs/4740345>

2.6. “Жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши курашиш соҳасида ички ишлар органлари фаолиятини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида” ПФ–6196-сон Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони / <https://lex.uz/docs/5344118>

2.7. “Жамоат хавфсизлигини таъминлаш самарадорлигини ошириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-4075-сон Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори / <https://lex.uz/docs/4124831>

2.8. “Жиноят-ижроия қонунчилигини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ПҚ-4006-сон Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори / <https://lex.uz/docs/4045443>

2.9. “Йўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлаш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ПҚ-3127-сон Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори / <https://lex.uz/docs/3266524>

2.10. “Ички ишлар органлари бошқарув, назорат ва шахсий таркиб билан ишлашнинг самарали тизимини жорий этиш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида” ПҚ-3919-сон Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори / <https://lex.uz-/docs/3877315>

2.11. “Ички ишлар органлари кадрлари билан ишлаш ва уларнинг хизматини ташкил этиш тартибини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ПҚ-3413-сон Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори / <https://lex.uz/docs-/3430641>

2.12. “Ички ишлар органлари таянч пунктларининг профилактика инспекторларини хизмат уй-жойи билан таъминлашга доир чора-тадбирлар тўғрисида” ПҚ-2906-сон Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори / <https://www.lex.uz/docs/3175657>

2.13. “Ички ишлар органлари ходимларини тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ПҚ-3216-сон Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори / <https://lex.uz/docs/3313218>

2.14. “Ички ишлар органларининг жамоат тартибини сақлаш ва жамоат хавфсизлигини таъминлаш соҳасидаги фаолиятини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ПҚ-2940-сон Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори / <https://www.lex.uz/docs/3202965>

2.15. “Ички ишлар органларининг жиноятларни тергов қилиш соҳасидаги фаолиятини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлар тўғрисида” ПҚ-2898-сон Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори / <https://lex.uz/docs/3180665>

2.16. “Ички ишлар органларининг миграция жараёнлари ва фуқароликни расмийлаштириш; соҳасидаги фаолиятини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ПҚ-3126-сон Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори / <https://lex.uz/docs/3266578>

2.17. “Ички ишлар органларининг фаолияти самарадорлигини ошириш, жамоат тартибини, фуқаролар ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини ишончли ҳимоя қилишни таъминлашда уларнинг маъсулиятини кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида” ПФ-5005-сонли Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони / <https://lex.uz/docs/3159827>

2.18. “Ички ишлар органларининг фаолияти самарадорлигини тубдан ошириш, жамоат тартибини, фуқаролар ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини ишончли ҳимоя қилишни таъминлашда уларнинг маъсулиятини кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида” ПФ-5005-сон Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони / <https://lex.uz/docs/3159827>

2.19. “Ички ишлар органларининг ҳуқуқбузарликлар профилактикаси бўлинмалари фаолиятини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ПҚ-2896-сон Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори / <https://lex.uz/docs/3175732>

2.20. “Ички ишлар фаолиятини янада такомиллаштиришга доир тошкий чора-тадбирлар тўғрисида” ПҚ-2883-сон Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори / <https://lex.uz/docs/3165013>

2.21. “Қорақалпоғистон Республикаси Ички ишлар вазирлигининг 19-сон ихтисослаштирилган жазони ижро этиш калониясини тугатиш тўғрисида / <https://lex.uz/ru/docs/4459347>

2.22. “Тошкент шаҳрида жамоат тартибини сақлаш, ҳуқуқбузарликлар профилактикаси ва жиноятчиликка қарши курашишнинг сифат жиҳатидан янги тизимини жорий этиш тўғрисида” ПҚ-3528-сон Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори / <https://lex.uz/docs/3556832>

2.23. “Тошкент шаҳрида жамоат тартибини таъминлаш, ҳуқуқбузарликлар профилактикаси ва жиноятчиликка қарши курашиш самарадорлигини ошириш бўйича қўшимча чора-

тадбирлар тўғрисида” ПҚ-3786-сон Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори /<https://www.lex.uz/docs/3786903>

2.24. “Транспорт ва туризм объектларида жамоат хавфсизлигини таъминлашнинг самарали тизимини жорий этишга оид қўшимча чора- тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-4229-сон Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори / <https://lex.uz/docs/4229310>

2.25. “Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлигининг байроғи ва эмблемасини намуналарини тасдиқлаш тўғрисида” ПФ-5602-сон Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони / <https://lex.uz/docs/4122457>

III. Adabiyotlar:

3.1. Ерметов А. Туркистонда назорат органлари фаолияти (Ишчи-деҳқон милицияси ва Ишчи-деҳқон инспекцияси 1917 – 1924 йилларда). – Тошкент: Abu matbuot-konsalt, 2007.

3.2. Ишанходжаева З. Р. Репрессивная политика Советской власти и культура Узбекистана: трагедия выживания (1925-1953 гг.). – Тошкент: Тафаккур, 2011.

3.3. Полвонов Н. Хоразмдаги ижтимоий ҳаракатлар ва сиёсий партиялар тарихи (1900-1924). – Т.: Akademnashr, 2011.

3.4. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. 2-китоб. – Тошкент: Шарқ, 2000.

3.5. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Учинчи китоб. Мустақил Ўзбекистон тарихи. – Т.: Шарқ, 2000.

3.6. Shamsiddinov R. Karimov Sh. Ubaydullayev o'. Vatan tarixi. 3-kitob. – Т.: 2010. – 368 б.

3.7. Usmonov Q. o'zbekison tarixi. Milliy istiqlol davri. – Т.: 2007. – 219 б.

IV. Internet ma'lumotlari:

4.1. <http://temurbeklar.zn.uz/temurbeklar-maktabi-tarixi/>

4.2. <https://akadmvd.uz/uz/menu/istorija-akademii>

4.3. <https://akadmvd.uz/uz/menu/istorija-akademii>

4.4. <https://e-tarix.uz/vatan-tarixi/480-maqola.html>

4.5. <https://iiv.uz/pages/vazirlik-tarixi>

4.6. <https://iiv.uz/uz/news/xodimlarni-ijtimoiy-himoya-qilish-uchun-beriladigan-imtiyoz-turlari>

4.7. https://ru.wikipedia.org/wiki/Министерство_внутренних_дел_Узбекистана

4.8. https://ru.wikipedia.org/wiki/Саиджанов,_Муса_Юлдашевич

4.9. https://uz.wikipedia.org/wiki/O'zbekiston_Respublikasi_Ichki_ishlar_vazirligi

4.10. https://uz.wikipedia.org/wiki/O'zbekiston_Respublikasi_Ichki_ishlar_va_zirligi_akademiyasi

4.11. https://uza.uz/uz/posts/ichki-ishlar-organlari-faoliyatida-yangi-mexanizmlar-zhoriy-etiladi_252221

4.12. <https://uznews.uz/uz/article/11749/>

4.13. <https://www.gazeta.uz/uz/2018/08/30/muzey/>

4.14. https://www.norma.uz/qonunchilikda_yangi/iiv_tugrisidagi_yangi_nizom_tasdiqlandi

4.15. <https://yuz.uz/news/ichki-ishlar-organlarini-xalq-manfaatlariga-xizmat-qila-digan-ijtimoiy-tuzilmaga-aylantiriladi>

4.16. <https://yuz.uz/news/ichki-ishlar-organlarini-xalq-manfaatlariga-xizmat-qila-digan-ijtimoiy-tuzilmaga-aylantiriladi>

4.17. Ички ишлар органлари фаолиятининг ҳуқуқий асоси / <https://old.xs.uz-/index.php/homepage/sijosat/item/9790-ichki-ishlar-organlari-faoliyatining-u-u-ij-asosi>

4.18. Транспортда хавфсизликни таъминлаш бош бошқармаси яралиши тарихи / <https://iivtransport.uz/index.php/welcome/about/3>

4.19. Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги ҳақида НИЗОМ /<https://lex.uz/docs/1033174>